

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

“Himoya qiliShga ruxsat beraman”

Tarix fakulteti dekani

_____ dots. G'oziev S.

“ _____ ” _____ 2012 y.

**5141500 - Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari ta'lim
yo'nalishibo'yicha bakalavr darajasini olishi uchun**

***GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA MILLIY O'Z-O'ZINI
ANGLASHNING DOLZARB MASALALARI***
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Anvar Karimov

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. B.M.Ochilova

Ishni himoyaga tavsiya etaman B. Ochilova

BMI Ijtimoiy fanlar kafedrasi yig'ilishining qarori
bilan (qaror № 9, 26.05.2012 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

B.M.Ochilova

JIZZAX – 2012

Mundarija

KIRISH.....	3-7
I-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI.....	8-56
1.1. Globallashuv va uning milliy o'z – o'zini anglash jarayoniga ta'siri.....	8-23
1.2. Globallashuv jarayonida tarixiy xotira, milliy ma'naviyat va merosni anglashning zaruriyati va ahamiyati.....	23-43
1.3. Milliy o'z-o'zini anglash va yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xosligi.....	43-56
II-BOB.GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI RIVOJLANTIRISH VOSITA VA USULLARI.....	57-68
2.1. Milliy o'zlikni anglashda ijtimoiy fanlar muhim vosita sifatida.....	57-63
2.2. Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning ba'zi usullari.....	63-68
XULOSA.....	69-71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	72-75
ILOVALAR.....	76-77

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir inson o'zligini anglash orqali o'z millatini anglash tomon rivojlanib boradi, chunki milliy o'z-o'zini anglash – kishilarni harakatga keltiruvchi ichki ma'naviy – ruhiy salohiyat hisoblanadi. Bu salohiyat halqaro darajadagi o'zlikni anglashga, o'z millatini, o'z madaniyatini va qadriyatlarni saqlab qolishga, ularni zamon tsivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylantirishga intilishini kuchaytiradi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov, “Bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina ... o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'zga munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin”¹ deb ta'kidlaydi.

Insoniyat tamaddunidagi har qanday o'zgarish, yangilanishlar insoniy munosabatlar tizimida kechadi. Bu o'zgarishlar hoh ijobiy, hoh salbiy bo'lsin, eng avvalo kishilar, millatlar, halqlararo muloqat tizimida shakllanadi. Bu jarayon dunyo mamlakatlari taraqqiyoti evolyutsiyasi, unga ta'sir qiladigan texnologik jarayonlar, ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy jarayonlarining globallasuvi bilan uzviy aloqadorlikda kechadi. Va bu hol milliy o'z - o'zini anglash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi.

Yurtboshimiz bu xususida to'xtalib: “Biz xalqning milliy o'zligini anglash jarayoni nihoyatda jo'shqin ravishda kuchayib borayotganligining guvohimiz. Umuman bu, shubhasiz, ijobiy jarayondir, lekin ana shu jarayon bilan bir vaqtda salbiy hodisalar ham yuz bermokda. Biz buni ham ko'rib turibmiz. Milliy o'zlikni anglashda buzilishlarga olib kelayotgan sabablarni, omillarni aniqlab olishimiz, ana shu jarayonlarga ijobiy ta'sir o'tkazish yo'llarini belgilashimiz...jumladan, biz tarixiy xalq an'analari, urf-odatlarini va

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.– T.: Ma'naviyat, 2008. – B.16.

marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur².

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib mavzuning dolzarbligini quyidagilar bilan belgilash mumkin:

- **birinchidan**, har bir tarixiy davr o'ziga hos shart-sharoitlari bilan jamiyat oldiga muayyan muammolarni qo'yadi. Ana shu muammolarni engib o'tishda tarixiy ong va tarixiy xotira milliy o'zlikni anglash omili sifatida umumiy maqsadlar va manfaatlar mushtarakligini qaror toptirish orqali jamiyat yaxlitligini, hamjihatligini ta'minlash vazifasini bajaradi. Shuning uchun milliy o'zlikni anglashning bu jarayondagi vazifalarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

- **ikkinchidan**, mustaqillik yillari milliy ma'naviy tiklanish va yuksalishda milliy manaviy meros va qadriyatlarga munosabat bevosita milliy ongni shakllantirish orqali amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham milliy ong va ma'naviyatning aloqadorligini, ayniqsa globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatga qaratilgan ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarning milliy ongga ta'sirini hamda uning oqibatlarini tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muxim ahamiyatga ega.

- **uchinchidan**, globallashuv sharoitida jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayoti globallashmoqda. Har bir sohada globallashuv milliy o'zlikka, milliy ma'naviyatga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Milliy o'zlikni anglash sof ma'naviy hodisa emas. Bu jarayonga siyosiy, iqtisodiy, demografik jarayonlar ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv sharoitida aynan shu omillarning globallashuvi ijtimoiy ongda, hususan milliy ongda qator o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shu bois globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglashning dolzarb masalalarini siyosiy, iqtisodiy va demografik o'zgarishlar kontekstida ham tahlil qilish zarurdir.

- **to'rtinchidan**, Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglashni qiyinlashtiruvchi omillarga javoban milliy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga zarurat kuchaydi. SHu sababdan milliy ta'lim-tarbiya tizimining mazmuni va

² Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. –B.90.

tashkiliy-uslubiy jihatlarini zamonaviy talablarga javob beradigan andozalari takomillashtirib borilmoqda. Bu ta'lim mazmuniga shaxs tarbiyasiga qaratilgan o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy qilish usullarini yaratish vazifasini qo'yadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Milliy o'zlikni anlash, uning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini masalalari Sharq va G'arb mutafakkirlari tomonidan jiddiy o'rganilib kelinayotgan mavzu hisoblanadi. Hususan, Konfutsiy, zardushtiylik, buddaviylik va tasavvuf ta'limotlarida, G'arb donishmandlari Suqrot, Aristotel qarashlarida, shuningdek, J.J.Russo, A.Shopengauer, S.I. Dudnik, D.Perkins, R.A. Kamenskaya, S.L.Rubinshteyn, A.I.Fursov, G. Pomerants, M.I. Belyaev, L.Levitin kabi yangi davr tadqiqotchilari o'z asarlarida milliy o'zlikni anglashning ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili, milliy immunitet asosi, global o'zgarishlar sharoitida milliy o'zlikni anglash masalalari to'g'risida to'xtalib o'tganlar³.

Respublikamiz olimlari A. Avloniy, N.Jo'raev, J. Tulenov, I. Jabborov, T.H.Qurbonov, R.Rahmonov, F.Fayziev, U.Saidov, S. Otamurodov, S. Mamashokirov, Sh. Tog'aeu, V.Qo'chqorov, Sh. Qahhorova, A.Choriev, B. Qosimov, M.Qodirova, N.Umarova, F.Sulaymonova, S.Otamuratov, Sh. Paxrutdinov, B.M.Ochilova, A.A.Azizxo'jaev, O'. Abilovlar ham o'z asarlarida milliy o'zlikni anglash jarayonining boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqadorlik jihatlarini, globallashtirishning milliy ma'naviyat va milliy o'zlikka ta'sirini,

³ Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. В 2х. т. – М.: Педагогика, 1989. Т. 1; Руссо Ж.Ж. Трактаты. – М., 1969; Шопенгауэр А. Свобода воли и нравственность. –М.: Республика, 1992; Дудник С.И. Парадигмы исторического мышления XX века: очерки по современной философии культуры. СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001; Перкинс Д. Исповедь экономического убийцы. М., Претекст, 2007; А.И.Фурсов. Россия выбирает между государством-нацией и государством-корпорацией. «Завтра», № 41, 10 октябр. 2007; Померанц Г. Страстная односторонность и бесстрастие духа – СПб.: Университетская книга, 1998; Беляев М.И. Концепция русского национально государственного. – М.: Мифология. 2006; Каменская Р.А. Историческое сознание: Автореф. дис. канд. филос. наук. – Волгоград: ВГПУ, 1999; Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Т.: Ўзбекистон, 2001.

shuningdek milliy ta'lim-tarbiyaning milliy o'zlikni anglashga qaratilgan g'oyaviy-pedagogik jihatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganganlar⁴.

BMI ning maqsad va vazifalari. Milliy o'zlikni anglash jarayonining mohiyatini ochib berish, uning tarixiy ong, tarixiy xotira, milliy ma'naviyat va meros bilan aloqadorligini asoslash, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglashning dolzarb masalalarini tahlil qilish BMIning maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish rejasidan kelib chiqib, milliy o'zlikni anglashga ta'sir etuvchi omillar va shart sharoitlarni o'rganish, globallashuvning mohiyati va uni milliy o'zlikka tahdidini ilmiy-nazariy jihatdan ko'rsatish, asoslash hamda bu tahdidni bartaraf etish yo'llari va usullarini ishlab chiqish BMI ning vazifalari hisoblanadi.

BMI da tadqiq qilinadigan masalalar:

- “Milliy o'z-o'zini anglash” tushunchasi va u bilan aloqador hodisalar mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganish;

- globallashuvning ijtimoiy shart-sharait sifatida milliy o'zlikka ta'sirini ilmiy – nazariy tahlil etish;

⁴ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: Ma'naviyat, 1998; Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2008; Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. -T.: Ma'naviyat, 2001; Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish– davr talabi. – T.:Mehnat, 2000; Qurbonov T.H.Yoshlarda milliy g'urning shakllanishida madaniy merosning roli: fals.fan.nomz. diss...avtoref – T.:O'zMU, 2005; Rahmonov R., Fayziev F. Yoshlar dunYoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T., O'zbekiston, 2008; Saidov U. Globllashuv va madaniyatlararo muloqot. T., Akademiya, 2008; Otamurodov S. Globallashuv va millat. T., Yangi asr avlodi, 2008; Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-ciYosiy jarayonlar. T., Akademiya. 2007; Qahhorova Sh.Global ma'naviyat — globallashuvning g'oyaviy asosi. – T., Tafakkur. 2009; Ochilova B.M. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Ma'naviyat, 1998; Choriev A., Mansurov A. G'oya, tarix va milliy tafakkur. –T.: Yangi asr avlodi, 2002; Qosimov B. Milliy uyg'onish. –T., Ma'naviyat, 2003; Qodirova M. Yoshlar ongida g'oyaviy dunYoqarashni shakllantirish. –T.: Yangi asr avlodi, 2002; Umarova N. Milliy istiqlool g'oyasini umumiy ta'lim tizimida singdirish texnologiyasi. 2003; Sulaymonova Fozila. Sharq va g'arb. –T.: O'zbekiston, 1997; Sadulla Otamuratov, Sarvar Otamuratov. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. Yangi asr avlodi.-T.: 2003; Otamurotov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy OsiYo: g'oyaviy jaraYonlar va mafkuraviy tahdidlar. –T.: Yangi asr avlodi, 2001; Paxrutdinov Sh. Tahdid - halokatli kuch. -T.: Akademiya, 2001; Karimova V., Umarov A., Qur'onov M. Milliy istiqlool g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. -T.: Yangi asr avlodi, 2001; Azizxo'jaev A.A. Chin o'zbek ishi. – T.:Akademiya, 2003; Mustaqillik, kurashlar, iztiroblar va quvonchlar. –T.: 2001.

- globallashuv sharoitida milliy ong va ma'naviyatda yuzaga kelayotgan muammolarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va mafkuraviy jihatlarini ochib berish;

- global o'zgarishlar sharoitida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xosligi, milliy o'z-o'zini anglash ma'naviy yuksalish va taraqqiyotning asosiy o'zagi ekanligini yoritish;

Tadqiqot ob'ekti. Global o'zgarishlar sharoitida milliy o'z-o'zini anglashning o'ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqot predmeti. Global o'zgarishlar va uning milliy o'z – o'zini anglashga ta'sirining tahlili.

BMI ning o'quv - uslubiy, ilmiy natijalari va amaliy ahamiyati.

BMI natijalaridan Ma'naviyat asoslari, Axloqshunoslik, Milliy istiqlol g'oyasi fanlarini o'qitishda, shuningdek murabbiylik soatlarida alohida mavzu sifatida foydalanish mumkin. BMI yosh avlodni hozirgi globallashuv sharoitida millatparvar, vatanparvar, mustahkam fuqarolik pozitsiyaga ega qilib tarbiyalashda, ularda milliy dahldorlik hissini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

BMI ning tuzilishi. Kirish, 5 bo'limni o'z ichiga olgan 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 77 bet.

1-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

1.1.Globallashuv va uning milliy o'z – o'zini anglash jarayoniga ta'siri

Biz yashayotgan davrning o'ziga xos xususiyatlardan biri globallashuv jarayonining kuchayib borayotganidir. Globallashuv – turli mamlakatlar odamlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy madaniy, ma'naviy ta'sir va bog'liqliklarning kuchayishidir. Globallashuv tushunchasiga berilgan ta'riflar xilma-xil. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rifdir. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekanligi urg'u beriladi:

- globallashuv – muttasil davom etayotgan tarixiy jarayon.
- globallashuv – jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni.
- globallashuv – “milliy chegaralarning yuvilib ketish” jarayoni.

Globallashuvning “milliy chegaralarning yuvilib ketish” jarayoni endilikda nafaqat o'z milliy tariximizda, balki butun insoniyat uch ming yillik ma'naviy evolyutsiyasi tarixida ham tub burilish davrida yashayotganimizni hisobga olish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.(1-ilovaga qarang). Zero bu davrning beqiyos o'ziga xosligi ham shunda- ayni hozirgi avlod ma'naviyatida avliyolarga xos supermental mo''jizakorlik qobiliyatining shakllanishi yoki butun insoniyat tsivilizatsiyasi halok bo'lishi bashorat qilingan davr ekanidadir.

Milliy o'zlikni anglash masalasida Sharq va G'arb talqinlari orasida katta farq bor. G'arbcha ratsionalistik talqinga ko'ra¹ milliy o'zlikni anglash masalasi ikki aspektdan iborat deb qaraladi. Birinchisi axloqiy psixologik aspekt bo'lib, u insonlarga xos kayfiyat, motiv va motivatsiyalar, ta'sirlanishlar, e'tibor

¹ Кузнецов П.В. Национальное самосознание чувашского этноса как объект социально-философского исследования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук.- Чебоксары. 2008.

qaratiladigan ko'rsatmalar va dasturlar, yo'l yo'riqlar, taqlidlar, shakllangan qoliplar, urf-odatlar kabilarni qamrab oladigan psixik jarayonlarni qamrab oladi. Ikkinchisi intellektual aspekt, u millatning o'z "Men"i haqidagi nazariy tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Bu ikki aspekt birgalikda xalqning milliy xarakterining o'ziga xosligini tashkil etadi.

Bu o'zlikning asosiy, o'zak g'oyasi mustaqillikka erishgan O'zbekistonning komil insonlar jamiyatini qurish idealida o'z ifodasini topgan.

Hozirgi davrda SHarqda ham yuqori intellektuallashuv, texnikalashuv, individuallashuv tamoyili sodir bo'layotganini, G'arbga esa buyuk sharqona ma'naviy qadriyatlar kirib borayotganini kuzatamiz.

Lekin bu jarayon ongli asosga va tegishli intizomga tayanib emas, balki stixiyali ravishda amalga oshmoqda. Bu esa mazkur jarayonlar kutilmagan havf-xatarlardan himoyalalmaganini ko'rsatadi. Ushbu xatarlardan biri va eng muhimi milliy o'zlikning saqlanishiga oiddir. Gap shundaki, hozirgi davrda G'arb intellektualazmi, texnik kuch-qudrati, "ommaviy madaniyat" mafkurasi hamda iqtisodiy ustivorligi sharoitida amalga oshirilayotgan juda lokal, nobarqaror integrallashuv millatning saqlanishiga tamomila ziddir. YA'ni bu globallashuv ayniqsa texnikaviy va iqtisodiy taraqqiyoti sust bo'lib, rivojlangan mamlakatlarga qaram bo'lib qolayotgan mamlakatlar xalqlarining millat sifatida o'lishiga, madaniyatining inqirozga uchrashiga olib keladi.

Vaholanki, chinakamiga insonparvarona ijtimoiy globallashuvda, xuddi oilada keraksiz, ortiqcha farzand bo'lmaganiday, "Keraksiz millat bo'lmaydi. Har bir millatning o'z o'rnini bor. Har bir millat kerakli. Lekin har qanday millatning asl ulug'ligi faqat uning boshqa millatlarga bo'lgan chuqur mehru muhabbatida o'z ifodasini topadi..."². Hozirgi globallashuvda esa buning tamomila aksi sodir bo'lmoqda.

Globalashuv jarayoni ob'ektiv hodisadan qaysidir mamlakatlarning gegemonik maqsadlari yo'lidagi qurolga aylanayotganligi ularning nishoniga

²Шри Чинмой. Гирлянда душ - наций. // Лекции, беседы, выступления при Организации Объединенных наций. Москва. Центр Шри Чинмоя. 1997. - Б.53.

aylangan har qanday millatning milliy o'zligiga katta havf tug'dirmoqda. Ular bu maqsadlari yo'lida globallashuvning turli ahborot-kommunikatsion vositalaridan unumli foydalanmoqdalar.

Yangi asr siyosat sub'ektlari o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish uchun "axborot bozori"dagi turli vositalardan foydalanadilar. Ular o'z hamkorlari bilan qaysi axborot vosita orqali muloqotga kirishishlari siyosiy sohaning axborot-kommunikativ tizimiga bog'liqdir. Axborot almashuv "bekati"da biz axborotga tashna va ularni qondiruvchi bir necha toifa mashg'ullarni ko'ramiz. Kommunikator va retsipientlar axborot-kommunikativ tizimi doirasida o'ziga xos vazifalarni bajaradilar. Bu ularning informatsion fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Axborot berish va kommunikatsiyaning u yoki bu turini tanlashga tashqi omillar – aniq holat, ijrochining g'oyasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Biz, hozir, ayniqsa globallashgan, tezkor kommunkatsiyalashgan, to'liq axborotlashgan mafkuraviy to'qnashuvlar kuchaygan, prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'siri"³doimo bilinib turadigan davrda yashayotgan ekanmiz, eng avval yoshlarimiz ongida mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim. YOshlarda tashqi g'oyaviy ta'sir va xurujlardan himoya qiladigan mustahkam ma'naviy immunitet shakllantirish kerak bo'ladi. Bularni amalga oshirmasdan milliy o'zlikni anglashni ta'minlash mumkin emas. Chamasi, bir necha yillar avval taniqli siyosatshunos S. Xattington bundan buyon butun dunyo faqat gamburgerlar iste'mol qiladi, Amerika televideniyasini ko'radi, amerikacha kiyimlar kiyadi, deb taxmin qilgan edi ("Biz kimmiz?"asari). Bunday qarashlar zahirida qanday mafkuraviy maqsadlar yotganini payqash qiyin emas. Keyingi vaqtlar butun dunyo G'arb rahnamoligida birlashuvi, kelgusida yagona hukumati bo'lgan bitta qudratli davlat tashkil topishi, pulga sig'inish (tog'ut), kosmopolitizm (jahon fuqarosi) va individualizm falsafasini targ'ib

³ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni –xalq, millatni –millat qilishga xizmat etsin. T., O'zbekiston. 1998. –B. 22.

etayotgan qarashlar tizimi vujudga kelmoqdaki, ular dunyo qiyofasini qay tarzda o'zgartirib yuborishini hech kim bashorat qila olmaydi. Bunday g'arazli faoliyat, qarashlar kishi ongiga oshkor va yashirin barcha vositalar yordamida, OAV, Internet hamda G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan kinofil'm, videofil'mlarda, reklamalarda zo'r berib targ'ibot, tashviqot qilinmoqda. Eski g'arbparastlik va yevropamarkazchilikning vorisi bo'lgan liberallashuv hamda globallashuv to'niga o'ralgan bunday qarashlar milliy tafakkurimiz, urf-odat va an'analarimizga qanchalik mos keladi?

Taniqli adabiyotshunoslarimizdan biri yoshlarga qilgan ma'ruzasining birida noxolis ijodkorlar haqida gapirib, frantsuz adibi Markiz de Sad o'zining fisqu fujurga to'la kitobining so'z boshidan iqtibos olib misol keltiradi: "Biz olis Sharqdagi mamlakatlarni bosib olish uchun endi frantsuz askarining o'q egan oyog'idagi etigi chirib bitishi shart emas, shunchaki jang qilmay, uyatsiz mahsulotlarimizni ko'z-ko'z (reklama) qilsak bo'ldi, ertaga dunyoning o'zi oyog'imiz tagiga yukinib keladi". Qanchalik sharmandali gap bo'lmasin shunday gullab-yashnagan madaniyatlarning ko'p hollarda "usti yaltiroq" bo'lib chiqmoqda.

Globallashuv jarayonlarining natijalaridan biri sifatida amerikacha andoza asosida madaniy unifikatsiyalash, turli xalqlarning rang-barang madaniyatini inkor etish asnosida yagona jahon madaniyatini shakllantirishga bo'lgan harakatlarni keltirish mumkin. Bu borada amerikalik siyosatshunos Z.Bzejinskiy shunday yozadi: "Madaniy ustunlik Amerika global kuch-qudratining muhim jihati sanaladi. Ayrimlar o'zining estetik qadriyatlari haqida qanday fikrda bo'lmasin, Amerika "ommaviy madaniyati", ayniqsa, jahon yoshlarini ohangrabo kabi o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi ehtimol shu madaniyat orqali targ'ib qilinayotgan hayotni sevish falsafasi, hayot sifati bilan bog'liqdir, lekin Amerika madaniyatining jozibadorligi shak-shubhasizdir. Amerika televizion dasturlari va fil'mlari jahon bozorining qariyb to'rt dan uch qismini egallagan. Amerikaning ommabop musiqasi ham ustuvor mavqega ega, shuningdek, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishdagi odatlari, hattoki, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid

qiladilar. Internet – ingliz tilida va kompyuterdagi so'zlarning aksariyat qismi Amerikadan bo'lib, global muloqotning mazmuniga ta'sir o'tkazadi. Va nihoyat, Amerika zamonaviy ta'lim olishga intilayotganlar uchun "Makka"ga aylangan..."⁴ Agar ta'lim oluvchi emigrant talabalar, mutaxassislar o'z mamlakati manfaatini o'ylamay ishlab qolib ketsa bundan yomoni yo'q. Bu esa sadoqat, o'zga g'oyalarga berilmaslik, "chet el ho'rozqandi"ga o'chmaslik, eng asosiysi iymon-e'tiqodni talab etadi. Buning uchun kishida milliy tarbiya asoslari mavjud bo'lishi kerak.

Ma'lumki, xalqni o'tmishidan mahrum etish uchun uning qanday paydo bo'lgani va kimlarning avlodi ekani haqidagi bilimlarni xotirasidan "o'chirish" kerak, xolos.

Bugun Amerika tarixini o'rganish bilan shug'ullanayotgan ko'pgina tashkilotlar Oruellning "1984" asaridagi Haqiqat vazirligi singari ish tutadi: mamlakat o'tmishiga oid voqea-hodisalarni soxtalashtirib, uning jinoyat va gunohlarini isbotlaydigan yangi tarixni to'qib chiqarishga, amerikaliklar sevadigan va qadrlaydigan narsalarga nafrat uyg'otishga intiladi. Bu sa'y-harakatlar kishilar qalbida vatanparvarlik, vatanga muhabbat tuyg'ularini so'ndirish, xalqni ma'naviyati va e'tiqodidan mahrum etish, qisqacha aytganda, amerikaliklarni o'zligidan, asl tarixidan judo qilishni ko'zda tutadi.⁵

Biroq hozirgi vaqtda Amerika bolalari ana shu buyuk meros va tarixni o'rganishdan mahrum etilmoqda. Natijada, Artur Shlezinger "Amerikaning tarqoqligi" asarida e'tirof etganidek, "Xalqni yo'q qilish yo'lida dastlabki qadam qo'yildi – uni xotirasidan judo etish boshlandi. Keyingi bosqichda uning kitoblari, madaniyati va tarixi yo'q qilinadi. So'ngra kimdandir yangi kitoblarni yozishni, yangi madaniyat va tarixni o'ylab topishni iltimos qilsangiz bas, xalq asta-sekin o'zligini ham, qanday paydo bo'lganini ham, kimlarning avlodi ekanini ham unutadi-qo'yadi". Bugun an'anaviy Amerika bilan madaniy inqilob o'rtasida borayotgan muxorabaning mazmun-mohiyati ana shu masalaga borib taqaladi⁶.

⁴Бжезинский З. Великая шахматная доска. М.: Арктогея, 1997. –С. 78.

⁵ Бьюкенен П. Дж. Смерть Запада. М.,- АСТ, TerraFantastica, 2004. –С. 78.

⁶Bahodir Zokir. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari. Tafakkur, №2, 2007. –B. 21.

Chuqur ob'ektiv tahlil va voqealar rivoji hozirgi tsivilizatsiyalpi krizisining asl sababchisi G'arb texnogen tsivilizatsiyasi ekaniniko'rsatmoqda. Bu "inqiroz — ko'p asrlik bu madaniyat barham topganini, bu jamiyat o'zining ijodiy imkoniyatlarini yo'qotgani"⁷ni ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ushbu madaniyat asosiga qo'yilgan qadriyatlarning krizisga uchraganini bildiradi. XX asrning 70 yillarida shakllangan neoliberalizm kontseptsiyasi krizisga uchragan shu tsivilitsiyaning umrini saqlashga bo'lgan so'nggi urinishi bo'lib, uning "jon talvasalari" butun dunyoni larzaga solmoqda.

Neoliberalcha fundamentalizm siyosatining millatlar va milliy madaniyatlar statusini o'zgartirish orqali dunyoda yangicha tartibot o'rnatishga bo'lgan urinishlarida o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi davr siyosatchilari ishlari tahlilidan chiqargan xulosamizga ko'ra, o'rnatilmoqchi bo'linayotgan yangi global tartibot aslida global moliyaviy o'yin faollarining ("qimorboz"larning) butun jahon boyligini qo'lga kiritish yo'lidagi yashirin manfaatlarini ifodalaydi.

Bunda globallashuv eng qulay vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki globallashuvda "mening millatim", "mening xalqim", "mening mamlakatim", "mening vatanim" kabi tushunchalarga o'rin qolmaydi. Shu ma'noda biz U.Saidovning⁸ globallashuv sharoitida "ommaviy madaniyat" niqobi ostida aslida milliy qadriyatlar tizimini o'zratirish jarayoni ketayotgani haqidagi fikriga qo'shilamiz.(3-ilovaga qarang).

Zero, chindan ham hozirgi davr G'arb individuallashuv (hudbinlashuv, pragmatik) madaniyati aslo ijobiy va umuminsoniy ma'naviy qadriyat emas. Ya'ni, uning "ommaviy madaniyati" poydevorini umuminsoniy ezgu kadriyatlar emas, balki "iqtisodiy, siyosiy, harbiy qudratga ega bo'lgan, o'z ta'sirini jahonga o'tkazishga"⁹ urinayotgan ayrim salbiy kuchlarning manfaatlari tashkil etadi.

Bu sharoitda "mening millatim", "mening xalqim", "mening mamlakatim", "mening vatanim" degan tushunchalar o'rniga "yangi davr

⁷ Дудник С.И. Парадигмы исторического мышления XX века: очерки по современной философии культуры. СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001. С.132.

⁸Saidov U. Globllashuv va madaniyatlararo muloqot. T., Akademiya, 2008. - B. 75.

⁹Otamurodov S. Globallashuv va millat. T., Yangi asr avlodi, 2008. – B. 179.

ko'chmanchilari"(bosqinchilari) va "butun dunyo mahalliyarlari (omma)" degan tushunchalar keladi.

"Monetaristik falsafaning bu tipi, deb yozadi, bu haqida, masalan, S. Batchikov, — ochiq – suvereniteti va chegaralari himoyalangan dunyoda jahon moliyaviy piramidalarini qurayotganlar bugungi kunda nimalar qilayotganini juda yaxshi oqlab beradi."¹⁰

Qolaversa, iqtisodiyot olimlarining tahlillari ham etakchi mamalakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti ko'pdan buyon ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida emas, balki boyliklarning kuchsiz mamlakatlardan kuchli mamlakatlarga o'tishi natijasida sodir bo'layotganini ko'rsatmoqda. Bunga kuchli mamlakatlar milliy davlatlarni kuchsizlantirish (ularga uzoq muddatli qarz berib, aslida iqtisodiy tuzoqqa tushirish), milliy va tabiiy resurslarni sotib olish va xususiylashtirish orqali erishmoqdalar.¹¹

Bu jarayon aholining ongini aldab qo'yadigan ommaviy axborot vositalari yordamida amalga oshiriladi. YA'ni, unga jahon iqtisodiyotining chiroyli "peshtaxtalari" (vitralari) ko'z-ko'z qilinadi, metropoliyalardagi gullab yashnayotgan hayot namoyish etiladi, lekin ularning boyliklari qanday olib chiqib ketilayotgani ko'rsatilmaydi, albatta. Bunda xalqaro moliyaviy tashkilotlar (korporatsiyalar) milliy davlatlarga bosim o'tkazib, ularni globallashtirish vositasiga aylantirishga harakat qiladi. Buning natijasida davlat xalq ijtimoiy ehtiyojlariga, fan va madaniyat taraqqiyotiga sarflanadigan chiqimlarni qisqartirishi kerak bo'ladi va h.k. Oxir oqibatda, turli moliyaviy o'yinlar qilib, mamlakatni krizisga duchor qiladi va uning korxonalarini arzon garovga sotib oladi.

Endilikda bu global moliyaviy chayqovchilar hatto butun-butun kontinentlarni hech javobgarliksiz xonavayron qilib, yuz milliardlab dollarlarni olib chiqib ketish, millionlab odamlar mehnatini qadrsizlantirish darajasiga borib etdilar. Zero, yangi xuquqiy tartibot bunga keng yo'l ochdi. Masalan, 1994-1995 yillarda Meksikada uyushtirilgan krizis Lotin Amerikasida aks sado berdi, 1997-1998 yillardagi

¹⁰ [Батчиков С. Глобализация: управляемый хаос. // http://www.apn.ru/publications/article19369.htm.](http://www.apn.ru/publications/article19369.htm)

¹¹Qarang: Перкинс Д. Исповедь экономического убийцы. М., Претекст, 2007.

Osiyodagi krizis Rossiyaga, 2001 yil Argentinaga ta'sir qildi. Ushbu krizislar xalq boshiga katta kulfatlar soldi, bir hovuch chayqovchilarga esa ko'pmilliardli boylik keltirdi. Bunda erli boylar orasidan chiqqanlardan bir qismining global elitaga kelib qo'shilishi ham sodir bo'ldi. Masalan, Meksikadagi krizisdan keyin u erda 24 milliarder paydo bo'lgan bo'lsa, 1998 yilgi krizisdan keyin Rossiyada 38 milliarder paydo bo'lgan.

Globalashuv kuchsiz iqtisodiyotli mamlakatlarni metropoliyalarning kriminal biznesi strukturalarining kiritilishi orqali inqirozga uchratmoqda. Chunki uning uchun pul sifatga ega emas, ya'ni pul to'g'ri yoki jinoiy yo'l bilan topilishida farq yo'q. Shuning uchun bu tartibot narkotiklar, inson organlari, odamlarni qul qilib sotish kabi jinoiy ishlarga keng yo'l ochadi. Bu yo'lda transnatsional kompaniyalar o'z millatini ham ayab o'tirmaydi, ya'ni ularning millati ham yo'q. O'z korxonalarini arzon ishchi kuchi bor joyga ko'chirarkan, "o'z" mamlakati ishchilarining ishsiz qolishi, qashshoqlashishi bilan ishi yo'q. Natijada metropoliyalarda o'rta sinf qolmayapti, aholi o'ta boy va o'ta qashshoqlarga ajralgan. Demak, yangi jahon tartibotida millatlar, ijtimoiy qatlamlar rang-barangligiga o'rin bo'lmaydi, faqat eng boylar (zamonaviy qaroqchi-bosqinchilar) va butun dunyo qashshoq erlilar (tuzem omma) bo'ladi. "Oltin milliard" kontseptsiyasi ayni shunday manzaraning nazariy ifodasidir.

Yangi iqtisodiy falsafada pul sifatining yo'qolishi xo'jalik hayotini faqatgina "makroiqtisodiy" ko'rstakichlar – pul va qimmatbaho qog'ozlar harakati orqaligina ko'rish, tabiiy qadriyatlar esa bu ko'rsatkichlar ostida qolishi tufayli sodir bo'ladi. SHuning uchun bu yangi, global ko'chmanchilarga "oltin milliard imperiyasi"dan boshqa har qanday milliy davlat dushman va nafrat ob'ektidir. Bu yo'lda ular hech qanday jinoyatdan qaytmaydilar... davlatlar ichiga kirib olgan qora kuchlardan foydalanib jinoiy guruhlar tuzadilar."¹²

SSSRning parchalanishida ayni shu texnologiyalar amal qilgani haqidagi fikrlar oldinga surilganiga ko'p bo'ldi. Biz ham o'z vatanimizda shunday

¹² [Батчиков С. Глобализация: управляемый хаос. // http://www.apn.ru/publications/article19369.htm.](http://www.apn.ru/publications/article19369.htm)

hodisalarning guvohi bo'ldik. "Mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korruptsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug' aymoqchilik"¹³ aslida G'arbda boshlangan va o'z ta'sir kuchiga ko'ra global tus olgan bu madaniy krizis bizning sharoitdagi aks sadosi bo'ldi. Ayniqsa, xalqaro terrorchilik insoniyatning hozirgi G'arb "ilg'or" insoniyati ma'naviy qiyofasini boricha, oshkor ko'rsatdi. Bular hammasi G'arb rahbarligi ostida amalga oshirilayotgan globallashuvning xaos yaratish yo'lidagi mevalaridir.

Boz ustiga ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali olib borilayotgan ma'naviy xurujlar xaos holatini behad kuchaytiradi. Halokatga uchragan kemalar, yongan kasalxonalar, o'rmonlar, qalbni muzlatib yuboradigan yollanma qotilliklar va boshqa jinoyatlar haqidagi axborotlar har qanday kishi ongida kuchli sarosimalik vujudga keltiradi, chorasizlik, ayanch tuyg'usini chaqiradi. SHu munosabat bilan mamlakatimiz prezidentining "Narkobiznes, noqonuniy qurol-yarog' savdosi, terrorchilik singari taxdidlar" hamda "inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra ko'proq vaxshiylikni, yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlik hislarini qo'zg'otadigan, yoshlar diydasi qotiradigan, ular qalbida o'zlariga sezdirilmagan holda toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olishiga olib keladigan jangarilik filmlarining jiddiy zararlari" haqidagi fikrlari yana bir bor o'z dolzarbligini namoyon etadi."¹⁴

Yuqorida biz globallashuvning milliy davlatchilikka xavf soluvchi tomonlari haqida fikr yuritdik. Lekin globallashuvdan tashqari milliy o'zligimizni vayron qilishi mumkin bo'lgan ichki xavflar ham mavjudligini eslab o'tishimiz joiz. Zero bu ichki xatarlar tashqisi bilan qo'shilib ketishi halokatni muqarrar qilishi mumkin. Bulardan biri korruptsiya bo'lsa, ikkinchisi byurokratiyaning avj olishidir. Birinchisi dunyoning yangi tartiboti vakillariga pulning qaerdan kelishining farqi yo'qligi tufayli rivojlanishi mumkin bo'lsa, ikkinchisi, millat taraqqiyotiga befarq, tor manfaatparast, malakasiz, mas'uliyatsiz, sovuqqon kishilardan tashkil

¹³Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. O'zbekiston. 1997.- B.134.

¹⁴Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild, - T.: O'zbekiston, 2001.- B. 74-75.

topadigan mahalliy “saraton kasalligi”, “uning xavfli bezlaridir”. Ayni shu “kasallik” avj olishini hozirgi mutaxassislar milliy davlatchilik xususiyatlari yemirilayotganining asosiy belgisi deb ko’rsatmoqdalar.¹⁵

Bir so’z bilan aytganda, Vatanimizning mustaqillikka erishuvi butun insoniyat hayotida behad murakkab davrga to’g’ri keldi. Ayni shu sharoitda milliy davlatimizni shakllantirdik, o’z milliy g’oyamiz, mafkuramizni rivojlantirishga bel bog’ladik. Bu avvalo xalqimizning siyosiy rahbariyati bu yo’lda bor kuchi, irodasi, aql-zakovati, iqtidorini safarbar etib, tinimsiz izlanishlar olib borib, mamlakat barcha ijodiy potentsialini ishga solayotganidadir.

Shunday qilib, globallashuv munosabati bilan milliy o’zligimizning shakllanishi va rivojlanishi jiddiy xavf-xatarlar ostida kechayotganini ko’rdik. Garchi ularning mazmuni prezidentimiz asarlarida chuqur va batafsil yoritilgan esada, ularga yana bir bor qisqacha to’xtalish ortiqcha bo’lmaydi. Aksincha, ularni tez-tez eslab turish xushyorligimizni saqlash va orttirishga xizmat qiladi. Ulardan asosiylari sifatida xarbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, informatsion (axboriy), mafkuraviy, ilmiy, madaniy, milliy xatarlarni ajratish mumkin. Biz o’z ishimizda globallashuvning faqat ma’naviyat bilan bog’liq tomonlari haqida fikr yuritishni maqsad qilib olganimiz uchun xarbiy xatar masalasiga to’xtalmaymiz. Qolgan xatarlar esa ma’naviyat bilan uzviy, shuning uchun yuqoridagi fikrlarimizni xulosalash uchun ularga qisqacha to’xtalamiz.

Iqtisodiy xatar haqida gap ketganida biz nafaqat yaqindagina mustaqillika erishib, o’z yangi iqtisodiyotimizni qurishday murakkab jarayonni boshdan kechirayotganimizni, balki butun jahon iqtisodiyoti jiddiy “xasta” ekanini alohida hisobga olishimiz zarur. 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy krizisi buning yorqin dalilidir.¹⁶ Bu xastalik jahon iqtisodiyotining endilikda tovar ishlab chiqarish iqtisodiyoti emas, balki chayqovchi-moliyaviy iqtisodiyotga aylanib ketganida ko’rinadi. Mazkur ahvol “hamma narsani pul hal qiladi”, degan

¹⁵ А.И.Фурсов. Россия выбирает между государством-нацией и государством-корпорацией. «Завтра», № 41, 10 октябр. 2007.

¹⁶ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo’llari va choralari. T.- O’zbekiston. 2009.

patalogik, teskari fikrlash tarzini keltirib chiqargan. SHuning uchun bunday tafakkur tarzining, ayniqsa bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, har qanday ma'naviy qadriyat uchun o'lim keltirishini hamisha yodda tutishimiz zarur. Ya'ni, yosh avlod tarbiyasida, fuqarolar kundalik ongida bu iqtisodiy xastalik tarqatadigan "infektsiya"ga ham qarshi turadigan immunitetni faollashtirish, o'z yuksak ma'naviy qadriyatlarimizning himoyalashning barcha choralarini ko'rishimiz zarur.¹⁷

Ijtimoiy xatar. Bu hozirgi davr kishisi ongiga taalluqli xatardir. Gap shundaki, hozirgi davrda insoniyat katta qismining tafakkuri ham kasallikka chalingan. Bu kasallik uning ko'pdan buyon chin ma'nodagi Qonunlarga (chin ahloqiy qadriyatlarga) asoslanib emas, balki ular haqida shakllangan yuzaki va o'zgarib ketgan tushunchalargagina tayanib yashayotganlarida ko'rinadi. Bu esa insonni turli jinoyatlar ko'chasiga olib kiradi, uning "aqlli inson"dan yana hayvon darajasiga tushiradi. SHu ma'nodo bu xatar ekologik xatardan xavfliroqdir. Zero, avvalo, ekologik xatar insondan tashqaridagi tabiatning vayron bo'layotgani bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy hatar insonning o'zi inson sifatida inqirozga yuz tutganini bildiradi. SHuningdek ekologik xatar ko'rinib turgan bo'lsa, inson ongining inqirozi ko'zga ko'rinmaydi. U vijdon xastaligi bo'lib, unga chalingan kishining asl mohiyati, ya'ni ma'naviyati xalok bo'lmasdan qolmaydi.

Informatsiya (axborot) xatari. Hozirgi davrda jamiyat to'liq informatsiyalashib borayotgani ko'rinib turipti. Bu esa jamiyat hayotining informatsiya sifati bilan uzviy bog'lanishini keltirib chiqarmoqda. Demak, nafaqat ayrim inson, balki butun davlat taqdiri endilikda global xarakter kasb etgan informatsiyaning ob'ektivligiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu esa informatsiyadan qurol sifatida foydalanishday jamiyat uchun jiddiy ichki va tashqi xatarlarni keltirib chiqardi. Bu xatar yoppasiga (total) texnologiyalashuvning samarasi bo'lgan OAV orqali zararli informatsiyani shov-shuv qilib keng tarqatib, kerakli, muhim informatsiyani ataylab yashirib qo'yishda namoyon bo'ladi. Bu borada

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot. 2009. - B. 20.

ayniqsa G'arb televideniesidagi ahvol ayanchli. Masalan, T.Kandoning postmodernizm haqida yozgan maqolasida ta'kidlanishicha, u erda ekranlar orqali tarqalayotgan informatsiyada "reallik bilan noreallik, muhim bilan nomuhim, rost bilan yolg'on fikrlar orasida farq umuman qolmagan."¹⁸ Ammo, prezidentimiz I.A.Karimov aniq ko'rsatganidek, "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tez-korki, endi ilgorigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas."¹⁹ Bundan tashqari, rus faylasufi G.Pomerantsning aytishicha, endilikda ko'pchilik televidenienga "videonarkotik sifatida bog'lanib qolmoqda va o'zi sezmagan holda unga tobe' bo'lib qolmoqda. Endi tashqaridan qaraganda erkin ko'ringani bilan bunday kishilarni xohlagan kuyga solib o'ynatish mumkin."²⁰ Bundan tashqari, davlatimiz rahbari o'rinli ta'kidlayotaniday, "Keyingi paytda san'atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'lmag'ur lavhalarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlikni, ba'zan esa, hatto axloqiy buzuvchilikni targ'ib qilishlar ko'payib qoldi. Barchamiz — qaerda, qanday lavozimda ishlamaylik, jamiyatimizning insoniylik va axloqiy aqidalarini poymol qiladigan ana shunday tajovuzkorlik ko'rinishlariga qat'iy ravishda qarshi turishimiz lozim"²¹.

Mafkuraviy xataraxborot xatari bilan uzviydir. Zero, informatsiya xatarini faqat kuchli mafkura yordamida bartaraf etish mumkin va aksincha, informatsiya xatari mafkurani barbod qilishi mumkin. Shuningdek, mafkura shaxsga jamiyat istiqboli ufqlarini aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Vaholanki, buningiz ijtimoiy taraqqiyot stixiyaviylik, betartiblik (xaos)dan iborat bo'ladi. SHuning uchun jamiyat o'z kuchli mafkurasiga, ya'ni o'z hayotiy maqsad va marralarini, millat va davlat ongli irodasini ifodalaydigan kuchli g'oyalar tizimiga ega bo'lishi

¹⁸ Kando T. Postmodernism // Intern. j. of world peace, St.Paul, 1996, №3.

¹⁹ Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch.Toshkent.: Ma'naviyat. 2008.- B. 112.

²⁰ Померанц Г. Страстная односторонность и бесстрастие духа – СПб.: Университетская книга, 1998. - С. 617.

²¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.-Toshkent.: Ma'naviyat. 2008.- B. 80.

zarur. Ongli insoniyat jamiyati hech qachon muayyan yo'naltiruvchi g'oyalarsiz faoliyat bajara olmaydi. Shu ma'noda mafkura jamiyat hayotining g'oyalar evolyutsiyasidan iborat ongli irodaviy asosini tashkil etadiva "jamiyatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlar paradigmaları"²² jadal o'zgarayotgan hozirgi davrda harqachongidan ham dolzarb o'ringa chiqadi.

Fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xatar. Fan inson tafakkurining yuksak mevasidir. U hozirgi davr global muammolarini to'g'ri onglash, ularni echish, xatarli jarayonlardan saqlanish, borliqning teran sirlarini bilish, insoniyat ongli faoliyatini yanada yuksaklikka ko'tarilib borishi uchun zarur. Lekin, planetamiz hayotidagi hozirgi sharoit fan kashf etgan bilimlarni amaliyotga qo'llash oqibatlari va ularning ahloqiy qadriyatlar bilan uzviylashuvi bo'lmasa, uning zarari foydasidan ancha katta bo'lishini ko'rsatdi. Ayni paytda uning inson ongi taraqqiyotining eng oliy marrasi emas, balki uning cheklangan evolyutsion bosqichi ekanini ko'rsatadigan jiddiy yalpi inqirozi kuzatilmoqda. Uni shu inqiroz yoqasiga olib kelgan krizisdan chiqarish borasida jiddiy izlanishlar olib borilishi kerak. Fanning krizisga uchrashi, bir tomondan, uning borliqni ayrim-ayrim (fragmentar) biladigan maxsus sohalarga ajralib ketib, borliqni yaxlit bilishga qodir bo'lmay qolganining oqibati bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning tor moddaparastlik falsafasiga tayanib, ruhiyat olamining mavjudligini inkor etib kelayotganidadir. Vaholanki, moddaparastlik falsafasidan keng va teran, I.Kant "metafizika" deb, SHarqda esa "hikmat" deb atalgan yuksak ta'limotlar ham mavjud. Ayni shunday ta'limotlarga tayanish fanni krizisdan chiqara oladi va uni yuksak axloqiy qadriyatlar bilan bog'lay oladi.

Milliylikka tahdid. Yuqorida sanab o'tilgan xatarlardan saqlanishning asosini milliy o'zlikni anglash tashkil etadi. Zero, o'zlikni bilmay o'zlikni himoyalash ma'noga ega emas (tavgologiya). Lekin hozirgi davrda o'zlikni anglashning o'zi ham oson kechmayapti. Chunki, atigi ikki o'n yillik oldin biz yagona sovet "oilasi" tarkibida edik, milliy o'zligimiz uzoq "uyqu" holatida bo'lgan edi. Endilikda

²²Mamashokirov S., Tog'aeV Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007. - B. 28.

o'tgan 70 yil mobaynida unutgan milliy o'zligimizni qayta kashf etmoqdamiz. Bu oson va tez kechadigan jarayon emas. U katta ma'naviy va moddiy safarbarlikni taqozo etmoqda. Boz ustiga, yuqorida ta'kidlaganimizday, "ommaviy madaniyat" va globallashuv niqoblari ostida aslida milliy qadriyatlar tizimini o'zratirish, ularni yo'qotish jarayonlari ham ketmoqda. Bu jarayonlarga qarshi turish borada juda katta ishlar qilindi va qilinmoqda, O'zbekiston milliy uyg'onish dasturi amal qilmoqda. "Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi, — deb uqtiradi bu borada prezidentimiz I.A.Karimov, — avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liq"²³.

Ammo hamon bajarilishi kerak bo'lgan ishlar miqyosi katta. Lekin, yuqorida aytganimizday, globallashuv jarayoni bizni kutib turmaydi, u har qanday millatni o'zlikdan judo qilib, uni ommaviy podaga aylanish yo'liga solmoqda. Bu, ayniqsa, hozirgi davrda keng avj olayotgan migratsiya jarayonlari munosabati bilan yaqqol namoyon bo'lmoqda. Vaholanki, aynan milliy o'zlik hozirgi davrda mamlakatni mamlakat qiladigan uch buyuk kuchdan, ya'ni **pul, ijtimoiy fikr, millatdan** biri²⁴, ularning eng asosiysi va ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Zero, chinakam pulni (sof boylikni) ham millat ishlab topadi (yaratadi), ijtimoiy fikr ham aynan milliy o'zlikka bog'liq. Ayni milliy o'zlik tuyg'usining kuchi aholi ijtimoiy ongini inqirozdan, noob'ektiv informatsiya xataridan saqlaydi. "SHu boisdan ham, o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondosha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqbol yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi."²⁵ Ayni shuning uchun "Birinchi

²³Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.-Toshkent .: Ma'naviyat. 2008.- B. 76- 77.

²⁴Qahhorova Sh. Global ma'naviyat —globallashuvning g'oyaviy asosi. – T., Tafakkur. 2009. – B. 62.

²⁵Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent. Ma'naviyat. 2008.- B. 77.

navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz — shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish"²⁶ bo'lishi kerakligi ravshan.

Milliy o'zlikning shakllanishi esa avvalo millat hayotiy faoliyatining maqsad va marralarini belgilaydigan o'z g'oyalari, mafkurasi, nazariy tilda aytsak, o'z kontseptsiasining shakllanishi bilan uzviydir.²⁷ Rus faylasufi M.I.Belyaevning²⁸ fikriga ko'ra, butun insoniyat yaxlit organizmida har bir millatning o'z o'rnini belgilaydigan g'oyasi bo'lishi kerak va rus millatining g'oyasi davlat quruvchanlikdadir.

Bizningcha, bizning o'tmish ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqib hozirgi milliy g'oyamiz asosiga qo'yilgan "komil insonlar jamiyatini qurish" g'oyasi bundan ancha keng va chuqur. Vaholanki, komil inson o'zligini bilgan insondir! Ayni shug'oya jamiyatimiz o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq to'g'ri tanlagan yo'limizdir. Ushbu o'zlikni bilish kontseptsiasining eng oliy, keng qamrovli va teranligi esa uning inson uchun ham, millat uchun ham bosh oliy maqsad ekanida, qolgan barcha muhim va yuksak g'oyalarni ham, shu jumladan, davlat qurish dasturini ham o'z mazmuniga olishidadir. Zero, faqat o'zligini bila olmagan, ma'naviyati, ruhiyati tuban kishi va shunday kishilar jamiyatigina har kimning qo'lida qo'g'irchoq bo'lishi, turli shov-shuvlar qurboni bo'lishi mumkin.

To'g'ri, bu kontsepsiya bizda hozircha tugal va keng quloq otganicha yo'q. Buning uchun avvalo biz shu kungacha tayanib kelgan, endilikda inqirozga uchragan dunyoqarashimizni o'zgartirishimiz (transformatsiyalashimiz) kerak. Chunki, biz shu kungacha tayanib kelgan ilmiy falsafiy (materialistik) dunyoqarash, garchi 70 yil mobaynida uning ilmiyligi, progressivligi, mutloq

²⁶Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -Toshkent. Ma'naviyat. 2008.– B. 78.

²⁷Qarang: Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. T., Akademiya. 2007. – B. 48.

²⁸Беляев М.И. Концепция русского национальноо государства. -Москва: Милогия. 2006.

haqiqat ekani, boshqa ta'limotlardan afzalligi juda yaxshi singdirilgan esada, aslida u endilikda krizisga uchragan G'arb madaniyati, fani va falsafasi bag'rida shakllangan, undan oziqlangan va undan kelib chiqqan bir oqim edi. SSSRning parachalanishi uning inqirozining natijasi bo'ldi.

Endi biz o'z milliy dunyoqarashimizni qayta shakllantirishimiz kerak. Lekin biz hozircha o'z miliy dunyoqarashimiz rasmana va keng qad ko'tardi deya olmaymiz. Chunki bu nafaqat o'z o'tmish ma'naviy qadriyatlarimizni yaxshi eslab olish, ularning yo'qotilgan yoki buzilgan joylarini qayta tiklash, yangi hayotga tatbiqan qayta ishlovdan o'tkazish kabi murakkab va uzoq jarayonni, va nafaqat XX asr G'arb falsafasi nima uchun inqirozga uchraganini hamda ushbu krizisning mohiyatini aniqlashni, balki madaniyat tarixida hikmat ilmi hisoblangan falsafiy, diniy, qolaversa, mifologik dunyoqarashlar mazmunini ham qayta tahlil etishni ham taqozo etmoqda.

1.2.Globallashuv jarayonida tarixiy xotira, milliy ma'naviyat va merosni anglashning zaruriyati va ahamiyati

Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglashning eng muhim omillari “ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar”²⁹ hisoblanadi.

Zero, milliy o'zlikni anglash tarixiy ong, tarixiy xotira, milliy ma'naviyat va meros bilan aloqadordir.(2-ilovaga qarang).Bu aloqadorlik quyidagilarda o'z aksini topadi:

Birinchidan, jahonda va mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, bugungi kunning siyosiy voqeligi hamda kundalik turmush ehtiyojlari jamoatchilikning tarixga bo'lgan qiziqishini pasaytirmadi, aksincha, o'tmishni yanada keskinroq idrok etishga olib keldi. Bu qonuniy jarayon, chunki yangi o'zgarishlar davri o'tmishni yuzaki o'rganish bilan cheklana olmaydi. U barcha davrlar hamda jarayonlarni har tomonlama chuqur anglashni talab qiladi. Chunki “tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. O'tganlarini xotiralamaydigan xalqning ertasi

²⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.- B. 30.

yorug' bo'lmaydi. Agar millat o'zining kelajagini porloq ko'rmoqchi bo'lsa, uning xotirasi uyg'oq bo'lmog'i shart. Boisi har qanday xalq va millat kechagi hayotidan, o'zi bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli kunlardan, tarix sinovlaridan zarur xulosa va saboqlar chiqarmog'i zarur"³⁰. Shuning uchun "mustaqillik yillarida o'zligimizni anglash, tarixiy–milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida nimaiki ish qilayotgan bo'lsak, ularning barchasini yagona maqsad — ko'p millatli xalqimizni birlashtirish uchun qilmoqdamiz"³¹. Shu bois "davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga"³² aylandi.

Ikkinchidan, xalqlar hayotidagi burilish pallalari, urushlar va inqiloblar, iqtisodiy yuksalishdan depressiya va tanazzulga o'tish, jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar doimo tarixga qiziqishni kuchaytirgan. O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichi keyingi rivojlanish yo'llarini tanlash, demakki, bosib o'tilgan yo'lni baholashning ham, istiqbolga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqishning ham usullari, shakllari, tamoyillari bilan bog'liq masalalarni kun tartibiga qo'ydi. Bunday savollarning javobi har qanday jamiyatni har bir yangi avlod siymosida mavjud ahvolga olib keluvchi sabablarni qayta anglashga undaydi.

Uchinchidan, bugungi paytda o'tmishga qiziqish, undan hozirgi kun uchun javob topishga intilish hamda kelajakni oldindan ko'rish uchun rivojlanishning biron–bir yo'lini tanlash umumiy tus olmoqda. Chunki o'tmish, bugun va kelajakni uzviy aloqadorlikda anglash milliy o'zlikni anglash va to'g'ri ijtimoiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, hayotda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlar xalqning mentalitetini, uning tarixiy ongini va tarixiy xotirasini, tarixiy va milliy xususiyatlarini, milliy-ma'naviy merosini yanada to'liq hisobga olish, uning o'z o'tmishini, iste'dodli O'zbekiston xalqi tomonidan ko'p asrlik boy tarixi davomida

³⁰ Karimov I.A. Xotira boqiydir, qadr – muqaddas. O'zbekiston ovozi. – 2007. – №56 – B.1 – 2.

³¹ Karimov I.A. Xotira chirog'i o'chmaydi. Biz kelajamizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 1999. T.7. – B.410

³² Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Biz kelajamizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 1999. T.7. – B.154

to'plangan barcha go'zal narsalarni teran bilishidan kelib chiqadi. SHuning uchun "biz buyuk davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, buning uchun zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma'naviy imkonlarimiz bilan bir qatorda tarixiy asosimiz ham bor. 2700 yillik buyuk davlatchilik o'tmishimiz bor"³³. Shu bois "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur"³⁴.

Beshinchidan, buyuk ajdodlari merosidan xabardor bo'lish yosh avlodda nafaqat o'z tarixi bilan faxrlanish tuyg'usi, balki unga munosib bo'lish, undan o'rnak olish ma'suliyatini ham shakllantiradi. O'zbekistonda yoshlar kelajak vorislari sifatida katta ijtimoiy – demografik qatlamni tashkil etadi. Vatanimiz kelajagi ko'p jihatdan mana shu yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish masalalarining qanchalik samarali hal etilishiga bog'liq. YOshlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish, milliy o'z-o'zini anglashni kuchaytirish muammosini o'rganish shu o'rinda o'z dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Tarixiy ong va tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash hozirgi global mafkuraviy tahdidlar omili kuchayotgan dunyoda kishilarda unga o'z g'oya va e'tiqodi bilan qarshi tura olish imkoniyatini yaratadi. Shu bois tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish hamda rivojlantirishning, milliy o'zlikni anglashni kuchaytirishning falsafiy muammolarini tahlil qilish va ochib berish maktabgacha muassasalarda, umumta'lim maktablarida, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, mehnat jamoalarida bu g'oyat qimmatli fazilatni har bir shaxsda shakllantirish ishini yaxshiroq bilib olishga ko'maklashadi.

Chunki manqurtlikday ruhiy xastalikka duchor bo'lgan o'tmish hayotimiz mobaynida biz o'z Vatanimizning "nafaqat Sharq, balki, umumjahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini...va "Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqanini" va barcha "Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari

³³Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak Yo'q. Biz kelajamizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 1999. T.7. – B.154

³⁴Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak Yo'q. Biz kelajamizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 1999. T.7. – B.153.

mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topganini”³⁵ unutib qo’ygan millat farzandlarimiz.

Ammo, zamonaning zaylidan va o’z taqdirimizdan nolishga aslo haqimiz ham yo’q. Zero, tangri taolo faqat o’z suygan bandalarini eng og’ir sinovlardan o’tkazib, chiniqtirgani kabi, millatimiz ham shu yillar mobaynida katta va mashaqqatli toblanishlar jarayonini boshdan kechirdi va kechirmoqda. Lekin, endi, “...davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o’zimizning zamon va makondagi o’rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimiz, kimligimizni bilishimiz kerak”³⁶ bo’lgan hal qiluvchi vaqt keldi.

Bu borada ziyolilarimiz juda katta ishlarni amalga oshirayotganlari ma’lum. Ayniqsa, totalitar sotsializm mafkurasini boshdan kechirgan va hozirgi yoshlar ta’lim-tarbiyasi bilan bevosita bog’langan ustozlarning bu boradagi mehnatini hech nima bilan almashtirib bo’lmaydi³⁷. Zero, 70 yillik tarixning zalvorli sinovlarini o’z boshidan bejiz o’tkazmagan ayni shu avlod ziyolisi yaqin tarixda millat o’z yaqin tarixida erishgan ijtimoiy tajribalarni bevosita tahliliy o’rganish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish, avvalgi ajdodlarning unutilgan buyuk ma’naviy meroslarini qayta tiklash va ularni zamon talablariga muvofiqlashtirish, shuningdek, yaqin o’tmish mafkurasining asosini tashkil etgan tor materialistik tafakkur doirasidan tashqariga chiqish yo’lida tinimsiz izlanish olib borish, buning uchun jahon ma’naviy hayotida, falsafiy madaniyatida oldinga surilgan g’oyalarni chuqur o’rganish, ulardan keraklilarini qabullash va afgor ommaga taqdim etish va nihoyat, shular asosida milliy o’zlikni anglashni yanada rivojlantirish va kelgusi ma’naviy madaniyatimiz poydevorini o’rnatishday murakkab vazifani o’z zimmasiga olishi kerakligi mantiqqa muvofiqdir.

Ayni paytda yosh avlod ham o’z dunyoqarashining shakllanishida yot mafkuraviy g’oyalarga yoki tasodifiy “ommaviy madaniyatga” emas, balki o’z

³⁵ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak Yo’q. – Toshkent. Sharq. 1998.- B. 3.

³⁶ O’sha asar. - B.5

³⁷ Qahhorova Sh. Global ma’naviyat —globallashuvning g’oyaviy asosi. – T., TAFAKKUR. 2009. – B.8.

millati ziyolisining qarashlariga tayanishi, o'zida tug'ilgan turli muammoli savollarga javobni aynan undan izlashi tabiiy. Avlodlar orasidagi shu tarixiy rishtaning saqlanishi millat ma'naviy hayoti sog'lomligining garovidir.

Ma'naviy tiklanish va yuksalishni amalga oshirish Vatanimiz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan oq Yurtboshimiz tomonidan xalqimiz diqqat markaziga qo'yib kelinayotgan eng muhim vazifalardan biridir. Zero, "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarni, odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi."³⁸

Mazkur vazifaning benihoya dolzarbligi yashayotgan davrimizning o'ziga xosligi bilan ham uzviydir. Zero, biz endlikda sotsiumning barcha sohalarini qamrab olayotgan, barcha mamlakatlar amalda yagona bozorga birlashuvi haqidagi fikrlar oldinga surilayotgan, sanoat ishlab chiqarishi ko'p jihatdan transmilliy korporatsiyalar nazorati ostida amalga osha boshlagan, internet tufayli har qanday yangi axborot (informatsiya) sayyoramizning istagan joyiga yashin tezligida tarqalayotgan, olimlar Erda yagona tsivilizatsiya qaror topishi xususida gapira boshlagan va A.Toynbining ta'biri bilan aytganda, insoniyat, "umumiy uy", "umumiytaqdir" va umumiy tashvishlar bilan yashashga kirishayotgan,³⁹ bir so'z bilan aytganda, "globalizatsiya" (globallashuv) deb atalayotgan jarayonlar sodir bo'layotgan zamonda yashamoqdamiz.

Hozirgi globallashuv davrida milliy ma'naviyatni asrab-avaylash, millat kelajagining barqarorligini kafolatlash masalasidek muhim va dolzarb masala bo'lmasa kerak. Globallashuvning salbiy zarbalariga qarshi tura oladigan milliy ma'naviyatni qudratli kuchga aylantirishni davrning o'zi zaruratga aylantirib qo'ydi. Globallashuvning universallashuv tendentsiyalari, umumiy madaniyat, umumiy makon, umumiy boshqaruv g'oyalari qarshisida milliy o'zlikni saqlab qolish, milliy manfaatlarni himoya qilish o'z kelajagini o'ylagan har bir millat uchun birinchi galdagi vazifa bo'lib qolmoqda.

³⁸ Karimov I.A. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. G'G' O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid. – T.: O'zbekiston, 1997. – B.137.

³⁹ Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.221.

Universallashtirish jarayonining millatlarni yutib yuborish xususiyati ayniqsa eng katta jiddiy havf bo'lib, uning birinchi zarbasi millatning tarixiy ongi va xotirasi, milliy o'ziga hoslik va milliy ong, milliy harakter va mentalitet kabi millatning mavjudligini belgilovchi komponentlarga qaratilgandir.

Milliy o'zlikni anglash boshqa hodisalardan ihotalangan sof metafizik jarayon emas. Uning ishlash mexanizmi bevosita tarixiy ong va tarixiy xotira, milliy ma'naviy meros va milliy g'oya bilan chambarchas bog'liqdir. Uning yadrosida tarixiy ong va xotira turadi.

Tarixiy ong va tarixiy xotira to'g'risida ko'plab qarashlar mavjud. Hususan, "Tarixiy ong, bu – har qanday bilimda bo'ladigan, hamma narsa, hatto ma'naviy borliq ham bo'lib o'tganligini anglashdir"⁴⁰.

"Tarixiy ong ijtimoiy ong shakli bo'lib, jamiyat tomonidan o'zining kelib chiqishi va zamondagi o'rni, o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi o'rtasidagi aloqadorlikning anglanishi, ijtimoiy voqelikning ob'ektiv idrok etilishidir"⁴¹.

Tarixiy ong "ilgari sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgan turli-tuman manbalar, ashyolar avloddan avlodga meros sifatida o'tib, tariximiz, madaniyatimizning uzluksizligini ta'minlaydi"⁴².

"Ilm-fanda tarixiy ong deganda odatda ijtimoiy guruhlar, sinflar, xalqlar, millatlarda o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi muhim voqealar va o'tmishdagi buyuk arboblarning haqida, o'z tarixining boshqa kishilik jamoalari va umuman bashariyat hamjamiyati tarixi bilan nisbati haqidagi qarashlar, an'analar, udumlar, odatlar, kontseptsiyalar mujassami tushuniladi"⁴³.

"Tarixiy xotira selektiv xususiyatga egaligi tufayli ularni (tarixiy ong elementlarini) saralay oladi, bir tizimga solishga xizmat qiladi" yoki "tarixiy

⁴⁰ Философский энциклопедический словарь. – М.: Инфра, 1999. – С. 190.

⁴¹ Abdullajanova D. Tarixiy ong va tarixiy xotira. Falsafa va huquq. – Toshkent, 2004. – № 2. – B.83.

⁴² Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish – davr talabi. – T., Mehnat, 2000. – B.7.

⁴³ Abdullaev R. Tarixiy ong va O'zbekistonning zamonaviy tarix fani. Tarix va o'zlikni anglash II: O'zbekiston va Germaniya XX asrda. – Toshkent, 2007. – B. 6-12.

xotirada san'at, urf-odat, marosimlar bilan bog'liq axborotlar saralangan tarzda jamlanadi va saqlanadi"⁴⁴.

“Tarixiy xotira – ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo'lishi, eslanishi, qadrlanishi"⁴⁵.

“Insonni butun insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar bilan bog'lab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ruhiy ma'naviy ozuqa beradigan qudrat tarixiy xotiradir"⁴⁶. SHuningdek adabiyotlarda “tarixiy ong ijtimoiy xotiraning tarkibiy qismi, uning elementlaridan biridir"⁴⁷, degan fikr ham mavjud. Bizning fikrimizcha, tajribadan ko'rinishicha, “tarixiy ong” tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra, “ijtimoiy xotira” tushunchasi bilan qiyoslaganda, unga nisbatan ancha keng tushunchadir, chunki “xotira” tushunchasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan va birgalikda tizim sifatidagi “ong”ni tarkib toptiradigan o'zaro bog'langan ko'plab elementlardan, shu jumladan xotiradan ham iborat bo'lgan ancha kengroq bo'lgan “ong” tushunchasining muhim, aytishimiz mumkinki, hatto markaziy elementi hisoblanadi. Bunda ong tizimidagi xotira – “kechinmalar onidan so'ng idrok etish va tasavvur etishni saqlab qolish qobiliyati; xotira (obrazli ifodalaganda) saqlovxonani ham bildiradi"⁴⁸.

Yuqorida bayon etilganlardan tashqari, tarixiy ong tizimida xotira “nafaqat tarixiy xotirani saqlaydi, balki inson ongida shakllangan bilim asosida o'tmishda ro'y bergan voqealarni tahlil etadi, xulosa chiqaradi, xarakterli tomonlarini qabul qiladi, turmushga joriy etadi va jamiyatning hozirgi sharoiti bilan solishtirib, qadrini belgilaydi"⁴⁹.

⁴⁴ Abdullajanova D. Tarixiy ong va tarixiy xotira. Falsafa va huquq. – Toshkent, 2004. – № 2. – B.82.

⁴⁵ Falsafa. Qomusiy lug'at. – T.:SHarq, 2005. – B. 389.

⁴⁶ Qurbonov T.H. Yoshlarda milliy g'ururning shakllanishida madaniy merosning roli: fals.fan.nomz. diss...avtoref – T.:O'z MU, 2005. – B.12.

⁴⁷ Каменская Р.А. Историческое сознание: Автореф. дис. канд. филос. наук. – Волгоград: ВГПУ, 1999. – С. 4.

⁴⁸ Философский энциклопедический словарь. – М.: Инфра, 1999. – С.330.

⁴⁹ Самибоев Х., Ширинбоев Ш. Махалла – тарихий хотирани тарбиялаш маскани. //Мулоқот.– Тошкент, 2003. – № 3. – Б.10.

Bizningcha, ong va tafakkur – jarayon, xotira esa qobiliyatdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy ongning barcha shakllari o'zaro uzviy bog'langan, bir-biri bilan munosabatda bo'ladi, birbirini o'zaro boyitadi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan yuqoridagi ta'rifu talqinlardan kelib chiqib shunday deyish mumkin: tarixiy ong bilimlar, tasavvurlar, qarashlar, an'analar, marosimlar, urf-odatlar, g'oyalar, kontseptsiyalar, fikrlarning shunday yig'indisini, majmuini tashkil etadiki, ular vositasida individlarda, ijtimoiy guruhlarda, xalqlarda, millatlarda o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi eng muhim voqealar va o'tmishdagi buyuk arboblarning to'g'risida, o'z tarixining kishilarning boshqa mushtarakligi, shuningdek inson sotsiumi va o'zining undagi o'rni bilan nisbati to'g'risida muayyan tasavvur paydo bo'ladi.

Tarixiy ong – o'tmishni uning umuman jamiyatga, xususan turli ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-professional, etnoijtimoiy, etnokonfessional guruhlariga, shuningdek alohida individlarga xos bo'lgan butun rang-barangligini hisobga olgan holda baholash hamdir. Bizningcha, tarixiy ong jamiyat, uning ijtimoiy guruhlari va individlarning o'z o'tmishi hamda butun insoniyat o'tmishi haqidagi tasavvurlari yig'indisidir. Tarixiy ongda o'tmish, bugun va kelajak uyg'unlikda in'ikos etadi⁵⁰.

Har qanday ijtimoiy mushtaraklik o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi eng muhim voqealar, o'tmishdagi buyuk (ba'zan unchalik buyuk bo'lmagan) arboblarning to'g'risida, o'z tarixining insoniyat tarixidagi o'rni haqida, o'z tarixining boshqa xalqlar tarixi bilan nisbati to'g'risida muayyan tasavvurlar tizimiga ega. Bu tasavvurlar, birinchi navbatda, turli tarixiy rivoyatlar, hikoyatlar, afsonalar, ertaklar, asotirlar tufayli mavjud bo'lib, ular jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismini tashkil etadi hamda uning o'zini ifodalashi va o'zini qaror toptirishining muhim usullaridan biri hisoblanadi⁵¹.

⁵⁰ Rahmonov R., Fayziev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T., O'zbekiston, 2008. – B.21.

⁵¹ Qarang: Келле В.Ж. Интеллектуальная и духовная составляющие культуры.//Вопросы философии. – Москва, 2005. – № 10. – С. 38– 54.

O'tmish, hozirgi zamon va kelajak tushunchalarining nisbati hamda o'zaro aloqasi masalasida biz Z.Orudjev va T.Kuznetsovalarning "o'tmishni vayron qiluvchi har qanday harakat – tsivilizatsiyaga qarshi jinoyat. O'tmish, o'tgan va eski – bir narsaning o'zi emas. O'tmish – hozirgi moddiy yoki ideal hodisani, predmetlar olamini yoki hodisalar olamini (biron-bir shaklda) belgilovchi (vaqt). O'tgan – (hozirgi) vaqt tomonidan bosib o'tilgan, boy berilgan o'tmish. Eski (eskirgan) – vayron qiluvchi (hozirgiga to'sqinlik qiluvchi) o'tgan vaqt, bu – yo'qolib borayotgan, hozirgini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan hodisa"⁵². So'ng: "O'tmish eskirgan, o'tilgan vaqt borasida emas, balki o'zining bunyodkorligi bilan boqiydir"⁵³. Shu bois "tsivilizatsiya o'tmish bilan hozirning birligi, bu hozirni o'tmish orqali idrok etishdir"⁵⁴.

Xalq, mamlakat, davlatning o'tmish tajbirasini tashkil qilish, saqlash va takrorlash jarayonidan kishilar faoliyatida, ijtimoiy ong sohasida foydalanish mumkin. Tarixiy xotira nomsiz xalq ijodiyoti, tarixiy rivoyatlar, dostonlar, afsonalar, qahramonlik eposi, ertaklar va h.k. yordamida shakllanadi⁵⁵.

Odatda, xalq ijodiyotida buyuk kishilar jasorati va qahramonligi, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi kuylanadi. Tarixiy xotira, tarixiy ongning zaruriy muhim, aytish mumkinki, markaziy elementini, xalq ma'naviy hayotining ajralmas qismini tashkil qiladi va shuningdek, uning o'zini o'zi ifodalashi hamda milliy xarakter xususiyatlari namoyon bo'lishi usulidir. Bunda o'z o'tmishini tanlashga, uni qahramonona miflashtirishga moyillik ko'rinib turadi. O'tmishning ahamiyati va uning talqini vatanparvarlik, o'zining ushbu birlikka mansubligidan faxrlanish tuyg'usi singari fazilatlarining shakllanishiga xizmat qilishi tufayli ushbu hol yuz beradi.

⁵² Оруджев З.М., Кузнецова Т.В. Культура и цивилизация. // Вестник Московского Университета. – Москва, 2005. – № 2. – С. 82.

⁵³ Оруджев З.М., Кузнецова Т.В. Культура и цивилизация. // Вестник Московского Университета. – Москва, 2005. – № 2. – С.83.

⁵⁴ Оруджев З.М., Кузнецова Т.В. Культура и цивилизация. // Вестник Московского Университета. – Москва, 2005. – № 2. – С.85.

⁵⁵ Qarang: Режабек Б.Я. Становление мифологического сознания и его когнитивности.//Вопросы философии. – Москва, 2002. – № 1. – С.52– 56; Майданов А.С. Миф как источник знания.// Вопросы философии. – Москва, 2004. – № 9. – С. 91– 105.

Shunday qilib, tarixiy ong va tarixiy xotira inson tomonidan oilaviy shajarasidagi, o'z xalqi tarixidagi o'zining "Men"ini anglashining, o'zining "Men"ini va umumiy "Biz"ni milliy va madaniy birlik ma'nosida, umuminsoniy madaniyatda tushunishining asoslaridan birini tashkil qiladi⁵⁶.

Adabiyot, san'at va, ayniqsa, globallashuv sharoitida bosma va elektron ommaviy axborot vositalarining jamiyatning tarixiy ongini, fikrlarini, tavajjuhi va antipatiyasini shakllantirishdagi roli juda ulkan, lekin bu ular jiddiy tarixiy bilimlar manbai bo'lib xizmat qiladi, degani emas. Ular ko'pincha o'tmishning sun'iy yaratilgan talqini modelidan iborat bo'ladi. Bunday tasavvurlar ommaviy ong tomonidan qo'llab-quvvatlangudek bo'lsa, ular jamiyatning bosqichma-bosqich rivojlanishiga tahdid solishi mumkin. Xalqlar uchun muhim bo'lgan ko'plab hodisalar, oshkora, ba'zan esa murosasiz munozaraga, hatto, boshqa xalqlar vakillarining to'qnashuviga olib kelib, umuman tarixiy ongning, shuningdek tarixiy xotiraning juda salmoqli omili bo'lishi mumkin. Shuning uchun e'tibor qilinadigan narsani to'g'ri tanlash va tarixiy hodisalarni to'g'ri talqin qilish, birinchi navbatda, xalqlarning bag'rikenglaricha hamkorlik qilishiga ko'maklashadi. Aks holda uzoq saqlanib qolish, ijtimoiy keskinlikni yuzaga keltirish va mojarolarni keltirib chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan ehtiyotkorlik, noto'g'ri xulosa chiqarish, salbiy qarash singarilar hosil bo'ladi.

O'z xalqining tarixiy o'tmishi uchun iftixor tarixiy ong va tarixiy xotiraning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning milliy qadrqimmatini shart qilib qo'yadi. Ushbu fazilatlaridan mahrumlik buzuvq psixologiya shakllanishiga olib keladi: kishilarda o'zining norasoligi hissi, kamsitilganligi, istiqboli yo'qligi, xafsalasi pir bo'lishi, ruhiy noqulaylik hissi yuzaga keladi.

Tarixiy ong va tarixiy xotira kategoriyalari ma'nosida ijtimoiy amneziya (xotirani yo'qotish, unutish) muammosi muhim masaladir. O'tgan asr tajribasi ko'rsatishicha, jamiyat bir qator hollarda, ba'zan ayrim kishilarda bo'lganidek, tarixiy xotirani yo'qotish (unutish) dardiga mubtalo bo'lishi mumkin. "Amneziya –

⁵⁶ Qarang: Столевич Л.Н. Об общечеловеческих ценностях.// Вопросы философии. – Москва, 2004. – № 7. – С. 96-97.

shunchaki unutish emas. Unutgan kishi nimani bilganu so'ng unutganini biladi. Avvalgi bilimlar xotiradan o'chmaydi. Amneziya avval bor bo'lgan bilimni unutish bilan bog'liq. Ijtimoiy amneziya ba'zan o'tmishda erishilgan butun-butun yutuqlar tarixdan tushib qolishini anglatadi⁵⁷. Jamiyat va millat o'z merosining biron-bir qismini yo'qotadi, biroq yuz bergan yo'qotishni anglamaydi. Natijada o'tmish bilan ajralish ro'y beradi.

Millat tarixiy xotirani yo'qotar ekan, kelajakdan mahrum bo'ladi. Kelajak nafaqat orzu yoki istak, balki bilish predmeti ham bo'lgani uchun o'tmishni, masalan, O'zbekiston tarixini tushunish jarayoni uning zaruriy elementi hisoblanadi. Bu uning o'tmishni bilish bo'g'inigina bo'lmay, balki kelajagini prognoz qilishning tarkibiy qismi hamdir.

Tarixiy ong va tarixiy xotira ko'plab fanlarni, ayniqsa eng avvalo, tarixni o'rganish jarayonida shakllanadi. Tarixiy ong va tarixiy tajriba har qanday jamiyat uchun ulkan nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. SHu bois tarixiy bilimlarga intilish kuchli. Shu munosabat bilan 2002 yilda ilmiy asarlar turkumi chiqarilib⁵⁸, shuningdek taniqli olim Yurgen Straube tahriri ostida "Наррация, идентичность и историческое сознание" kitobi⁵⁹ nashrga tayyorlanib, Evropada olimlarning e'tibori ushbu muammoga qaratilgani bejiz emas⁶⁰. O'tmishga qiziqish o'z sarchashmalari haqida haqiqatni bilish istagi, bilim doirasini kengaytirishga intilish, o'z mamlakati, o'z xalqi ildizini bilishga bo'lgan ehtiyoj, tarix saboqlarini, o'tmish avlodlar tajribasini bilish istagi, tarixdan dolzarb masalalarga javob topishga intilishdan kelib chiqadi. "Xotirasiz biz oniy mavjudot bo'lib qolardik – deb hisoblaydi S.Rubinshteyn, – o'tmishimiz kelajak uchun o'lik bo'lib qolardi. Hozirgi kun, o'tmishga ko'ra, o'tmishda qaytmas bo'lib yo'qolib ketardi"⁶¹. Ko'rinib turganidek, sabablar etarlicha ishonchli, lozim darajada aniq-ravshan va

⁵⁷ Rahmonov R., Fayziev F. Yoshlar dunYoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T., O'zbekiston, 2008. – B.29.

⁵⁸ Qarang: Курарцева М.А., Коломеец Е.Н. Историография и историческое мышление.// Вестник Московского Университета. – Москва, 2004. – № 2. – С. 31-49.

⁵⁹ O'sha joyda. – С.31.

⁶⁰ O'sha joyda. – С.31

⁶¹ Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. В 2х. т. – М.: Педагогика, 1989. Т. 1. – С. 302

muayyan ma'noda, olijanob hamdir, chunki kishilarning o'z mamlakatining to'la ma'nodagi fuqarosi bo'lish ehtiyojiga javob beradi. Bunda identifikatsiya (o'z mamlakati, xalqi bilan bir bo'lish) sabablari hamda ob'ektiv bilimlarga intilish ham bor, chunki bu hozirgi kunni yaxshi tushunish imkonini beradi, to'g'ri qarorlar qabul qilishda ko'maklashadi. Aholi tarixni bilmasdan va milliy o'zigini anglamasdan turib, madaniyatli inson bo'lish mumkin emasligini tushungani holda, tarixiy bilimlarni farzandlarni tarbiyalash vositasi deb hisoblaydi.

Kishilar mushtarakligi tarixiy ong va tarixiy xotira sharofati bilan, o'z o'tmishini bilish asosida, o'zining jahon tarixiy jarayonidagi o'rnini bilish asosida o'zini birlik sifatida anglaydi. Natijada tarix ijtimoiy ong bilan uzviy qovushib ketadi. Uning majmu holda jamiyat ongini (qarashlari, g'oyalari, siyosiy va huquqiy ongi, tarixiy ongi, xotirasi, axloqi, dini, san'ati, fanini) tashkil qiluvchi barcha elementlari o'z tarixiga ega. Ularni har bir hodisani kelib chiqqan konkret sharoit va vaziyatlar, rivojlanish sharoiti nuqtai nazaridan qarab chiquvchi tarixiy yondashuv asosidagina tushunish va bilish mumkin. Xuddi shuning uchun ham hozirgi zamonning eng muhim muammolari bo'yicha munozaralarda doimo o'tmishga murojaat qilinadi. Zamonaviy ijtimoiy nazariyalar hamda mafkuraviy tizimlar o'tmishni baholash negizida ishlab chiqiladi. O'tmish bilan hozirgi zamonning uzluksiz aloqasi va vorisiyligi shu tariqa hosil bo'ladi.

Milliy manfaatlar, ruhiyat, axloq va odob normalari ham inson dunyoqarashiga ta'sir etmay qolmaydi. Muammoning bu jihati hali etarli darajada o'rganilgan emas. Dunyoqarashning milliy jihatlari shakllanishiga asos bo'ladigan omillardan biri milliy ma'naviyatning o'zagi bo'lgan milliy ongdir. Milliy ong ijtimoiy ongning bir shakli sifatida milliy o'zlikni anglashdir. Milliy ong tarixiy ong hamda tarixiy xotira bilan munosabatda bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi. Masalaga chuqur va ob'ektiv qaralsa, tarixiy ong va tarixiy xotira milliy ongning yadrosi, muhim elementi sifatida o'rin oladi.

Milliy ong, tarixiy ong va tarixiy xotiraning shaxs dunyoqarashiga ta'siri, ayniqsa, millat, mamlakat tarixidagi burilish pallalarida yaqqol namoyon bo'ladi, milliy uyg'onish jarayoni tezlashishiga olib keladi.

Ma'lumki, har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'i nazar, eng avvalo, uning milliy ongi va psixologiyasida yorqin gavdalanadi. Milliy ong — ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan etnik ongning asosiy shaklidir. Ayni mahalda shuni nazarda tutish zarurki, "ijtimoiy ong — bu ob'ektiv olam va ijtimoiy borliqning kishilar ongida aks etishidir"⁶². Shunday ekan, har bir xalq, elat va millat o'zining ijtimoiy hayotini aks ettiradigan etnik ongga egadir. Mazkur etnik ongning tarkibiy qismini urug', qabila, elat va millatlarning ongi tashkil etadi. Etnik ong ijtimoiy ongga nisbatan konkret tushuncha bo'lib, unda urug', qabila, elat, millatlarning ijtimoiy hayoti, madaniyati, urf-odat va an'analari, tarixi, ijtimoiy psixologiyasi, dunyoqarashi aks etadi.

O.G'aybullaev fikricha, "hozirgi zamonda yashayotgan yoshlarning ongiga Vatanni sevish, umuminsoniy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni singdirish, milliy o'zligini anglatish; mehr-shafqatli, vijdonli, andishali qilib tarbiyalash"⁶³da milliy ong va uning asosiy tarkibiy elementlari bo'lgan tarixiy ong hamda tarixiy xotiraning roli ulkan bo'lib, ular katta ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lgan milliy ong kishilar o'zining ma'lum etnik guruhga mansubligini, vatanining tarixi, ajdodlari qoldirgan an'analalar, marosimlar, meros va amaliy tajribani, milliy manfaatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq ravishda chuqur anglashi, muayyan mushtarak g'oya va mafkuraga tayanib, o'z xalqi va vatanining istiqloli va istiqboli yo'lida fidokorona xizmat qilishi, boshqa millatlarga ham adolatli munosabatda bo'lib, ularning o'ziga xosligi va manfaatlarini hurmat qilishidir. Demak, ijtimoiy ong — bu ob'ektiv olam va ijtimoiy borliqning kishilar ongida aks etishi bo'lsa, milliy ong — ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan etnik ongning asosiy shaklidir.

Bunda, masalan, "tarixiy xotira etnik ongning komponenti bo'lgani holda, ijtimoiy ongning boshqa shakllarining o'rnini bosmaydi va, ayniqsa, ularga zid

⁶² Rahmonov R., Fayziev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T., O'zbekiston, 2008. — B.36.

⁶³ G'aybullaev O. Yoshlar ongiga istiqlol g'oyasini singdirishning ijtimoiy mohiyati haqida. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar.— 2005. — № 12. — B.80.

kelmaydi, balki ular bilan o'zaro munosabatda bo'ladi"⁶⁴, shuningdek "individ tomonidan hozirgi zamonning idrok etilishi xususiyati ko'p jihatdan uning o'tmishni tushunishiga bog'liq bo'ladi... Tarixiy xotira xalqning ijtimoiy borlig'ini rivojlantirish istiqbolini, ya'ni kelajakni ham muqarrar ravishda qamrab oladi, zero kelajak — o'tmish va bugungi kunning muayyan yakuni, ularning oqibati hamda davomidir"⁶⁵. Bizningcha, milliy ongda, tarixiy ong ham birmuncha keng o'ziga xos bo'lgan jihatdan ushbu maqomga egadir.

Har bir xalqning milliy ongi o'sishi uning milliy ma'naviyati rivojlanishi darajasi, imkoniyatlari va milliy ma'naviy merosi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, etuk milliy ong barkamol milliy ma'naviyat va merosning natijasi sifatida yuzaga keladi. Har qanday millat o'z qadr-qimmatini bilishi va anglashi, kelajakka komil ishonch bilan borishi umumiy milliy ma'naviyat, milliy ma'naviy meros, milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira va dunyoqarashning o'zaro dialektik birlikda rivojlanishi bilan belgilanadi. Inson dunyoqarashida milliylik omillari zaif bo'lishi manqurtlik holatini keltirib chiqaradi. Manqurtlik tushunchasi kishilarda milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira yo'qligi yoki nihoyatda zaifligini bildiradi. Milliy ma'naviyati zaif, vatanining tarixi va istiqboliga befarq qaraydigan kishilarning milliy onglilik darajasi, dunyoqarashi ham yuksak bo'lmaydi. Ular boshqa xalqlarning madaniyati, manfaatlari ta'sirida qolib, o'z vatanining mustaqilligi, kelajakdagi taraqqiyoti yo'lida fidoyilik namunalari ko'rsata olmaydilar. Milliy ongi va uning asosiy tarkibiy elementlari bo'lgan tarixiy ongi va tarixiy xotirasi zaif bo'lgan xalq o'z istiqbolini oldindan ko'rish, manfaatlarini anglash va himoya qilish imkoniga ega bo'lmaydi.

Bundan ko'rinadiki, **milliy ong va uning asosiy elementlari — tarixiy ong va tarixiy xotira oddiy his-tuyg'u emas, balki muayyan darajadagi ma'naviyatga, axloqiy, huquqiy madaniyatga, ilmiy asoslangan g'oyalar va mafkuraviy qadriyatlarga, tarix tajribasiga asoslangan e'tiqoddir. Milliy onglilikning shaxs dunyoqarashiga ta'sir etadigan quyidagi asosiy mezonlari**

⁶⁴ Гулямова Д., Никитченко Г. Историческая память как объект изучения социологии. // Общественное мнение. Права человека.— Ташкент,— 2001. — № 4. — С. 99.

⁶⁵ O'sha asar. — С.99.

bor: milliy ong millatning yaxlit ijtimoiy etnik birlik sifatida shakllanishi, saqlanishi, rivojlanishini anglashidir va bu anglashda tarixiy ong hamda tarixiy xotira milliy ong tizimidagi asosiy elementlar sifatida tarixni aks ettirish vazifalarini bajaradi.

Etnik birliklar bir tilda so'zlashib, bir-biriga yaqin bo'lgan kishilar bir erga jamlanganida emas, balki ular o'zlarining mushtarak, asosiy maqsad va manfaatlarini anglab, ularni amalga oshirishga hamjihat bo'lib kirishgan davrdan boshlab shakllanadi va rivojlanadi. Millatning kuchi va imkoniyati ham uning soni bilan emas, balki vakillari o'z umummilliy manfaatlarini qay darajada chuqur anglashi bilan belgilanadi. Har bir millat dastavval o'zining yaxlit etnik birlik ekanini anglamog'i, tarixi, taqdiri, istiqboli, manfaatlarini chuqur tushunib etmog'i, shundan keyingina boshqa millatlarning tarixi, madaniyati, milliy xususiyatlari va manfaatlariga xolis baho bermog'i mumkin.

Milliy ong zaminida, birinchi navbatda, muayyan etnik birlikka mansublikni anglash yotadi. Bu milliy o'zlikni anglashning asosidir. Milliy o'zlikni anglash millatning tarixi, taqdiri, mushtarak manfaatlar, tili, madaniyati, iqtisodiy hayoti, milliy xususiyatlarini yaxlit tushunishdir. Demak, milliy mansublik har bir shaxs zimmasiga muayyan mas'uliyatni ham yuklaydi. Millat vakili uning manfaatlar, maqsadlari bilan bog'liq umummilliy g'oyadan chetda tura olmaydi. Milliy g'oya, milliy mafkura xalqni, millatni muayyan manfaatlar yo'lida birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, uning faoliyatiga maqsad va yo'nalish baxsh etuvchi, shu asosda uning istiqbolini belgilovchi ijtimoiy ruhiy omildir.

“O'zbek” degan so'z biz uchun bir etnik birlikning nomigina emas, balki iftixor, hurmat belgisi, burch va mas'uliyat manbaidir. “O'zbek” degan so'z qulog'imiz ostida shunchaki jaranglamaydi, balki qalbimiz, ruhiyatimizning eng nozik torlarini tebratadi, ilhom, ishonch, ko'tarinki ruh baxsh etadi. Biz shu millatning farzandi bo'lganimiz bilan, uning tarixi, madaniyati, qadriyatlari, milliy fazilatlari bilan, xalqimizning yutuqlari bilan faxrlanamiz, uning oldidagi burch va mas'uliyatimizni to'laroq, chuqurroq anglashga harakat qilamiz. Bu milliy ongning birlamchi va asosiy poydevoridir. O'z xalqini boshqalardan ko'ra ko'proq

sevmaydigan inson bo'lmaydi. Qanchalik baynalmilalchi bo'lmaylik, milliy ma'naviyat, his-tuyg'u qalbimizdan chuqurroq o'rin olaveradi. Boshqa millatlar orasida bo'lganimizda o'zbeklar ko'zimizga issiqroq ko'rinadi, tili jarangliroq tuyuladi. Bu ham milliy ong e'tiqod, milliy ruhiyat darajasiga ko'tarilganining belgisidir. Asrlar davomida bunday e'tiqod inson qalbiga, hatto qon-qoniga singib ketadi, millatparvarlik, vatanparvarlik darajasiga ko'tariladi, dunyoqarashiga chuqur ta'sir etadi⁶⁶.

Demak, "yuksak milliy onglilikning yana bir muhim belgisi — vatanparvarlik, millatparvarlik bo'lib, ular tarixiy ong va tarixiy xotira bilan bog'liq"⁶⁷.

Millatparvarlik va vatanparvarlik bir-biri bilan bog'liq, biri ikkinchisini to'ldiruvchi ma'naviy fazilatlardir. O'z xalqini sevgan inson shu xalq minglab yillar davomida yashab kelgan, kelajak avlodlari ham yashaydigan, rivojlanib, o'z baxt-saodatini topadigan vatanini sevmasligi mumkin emas. Vatan inson uchun ona kabi yagonadir. Dunyoda boy, rivojlangan, go'zal yurtlar ko'p. U erlarda tinch, to'q, farovon yashash ham mumkin. Biroq bu yurtlar haqiqiy e'tiqodli, imonli kishilar uchun haqiqiy Vatan bo'la olmaydi. Xalqimizda, "o'zga yurtga podshoh bo'lgandan ko'ra, o'z yurtingda gado bo'lganing yaxshi", degan maqol sababsiz yaratilmagan. O'zbeklar dunyoning qaerida bo'lsalar ham, o'z vatanini unutmaydilar; vatandan qanchalik olisda bo'lsak, uni shunchalik ko'proq sevamiz, qo'msaymiz, qadriga etamiz. Musofir bo'lmagan — musulmon bo'lmaydi, deganlaridek, uzoq yurtlarga safarga borganimizda Vatan ko'zimizga boshqa mamlakatlardan go'zalroq, afzalroq ko'rinadi. Fitratning "Vatan qiblagohdir", Islom Abdug'anievich Karimovning "Kelajak avlodlar uchun bizdan ozod va obod Vatan qolsin", "Elim deb, yurtim deb yonib yashamoq kerak", degan fikrlarida ham xuddi shu ma'no bor.

⁶⁶ Rahmonov R., Fayziev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T., O'zbekiston, 2008. — B.40.

⁶⁷ Qarang: Рахимова Д. Историческое сознание как важнейший фактор формирования идеологии независимости. // Общественные науки в Узбекистане.— Ташкент, 2004. — № 2—3. — С. 89—90.

O'zbekiston jahondagi barcha o'zbeklarning manfaatini himoya qiladigan, birlashtiradigan, qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini ko'taradigan yagona Vatandır. Shu vatanni unutish, uning manfaatlariga xiyonat qilish — vatanfurushlikdir. Bizning milliy e'tiqodimizga ko'ra, vatanfurushlik ma'naviy tubanlikdir.

Vatanparvarlik oddiy his-tuyg'u emas, balki yuksak burch va mas'uliyatdir. Vatanni sevaman, deb ko'p gapiradiganlar emas, balki uning istiqboli, manfaati yo'lida fidoyilarcha xizmat qiladigan kishilar haqiqiy vatanparvar bo'ladilar. Vatanparvarlik, birinchi navbatda, insonning el-yurt manfaati yo'lidagi halol mehnatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekiston jamiyatining eng birinchi vazifasi — “yoshlarning ongiga Vatanni sevishtirish, umuminsoniy axloqiy ma'naviy qadriyatlarni singdirish, milliy o'zligini anglatish, mehrshafqatli, vijdonli, andishali qilib tarbiyalash”⁶⁸.

O'zbekiston bizning yakkayu yagona Vatanimiz ekan, uning taqdiri barchamizning ham taqdirimizdir. Shu Vatan tinch bo'lsa, biz ham tinch bo'lamiz, boy bo'lsa — boy bo'lamiz, rivojlansa — barcha orzu-umidlarimiz ushaladi. O'zbekistonni hurmat qiluvchilar ko'p, lekin uni hech kim o'zbeklar singari sevmaydi, hech kim Vatanimizning istiqbolidan, yurtida ahillik, barqarorlik hukm surishidan biz, o'zbeklarchalik manfaatdor emas. Hadislarda ham “Vatanni sevmok iymondandir”, degan tabarruk so'zlar aytilgan. Demak, vatanparvarlik imon, e'tiqod darajasiga ko'tarilgan ma'naviy fazalatlarning biridir. Vatanparvarlik tuyg'usining milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira, dunyoqarash tizimidagi o'rni, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi.

Milliy ongning, tarixiy ongning, tarixiy xotiraning bir-biriga, dunyoqarashga ta'sir etadigan yana bir jihati — milliy birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamdardlik, hamkorlik tuyg'usidir. Milliy birlik, birdamlik, hamkorlik, hamdardlik, ahillik ma'lum milliy g'oyaga, mafkuraga tayanib, anglangan mushtarak maqsadlar sari borishdir.

⁶⁸ G'aybullaev O. Yoshlar ongiga istiqbol g'oyasini singdirishning ijtimoiy mohiyati haqida. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar.— Toshkent, 2005. — № 1– 2. — B.80.

Inson shu tuyg'u asosida o'zining alohida etnik guruhga mansubligini anglaydi, uning tarixi va taqdirini chuqurroq bilishga intiladi, Vatan, xalq manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatadi, o'z xalqiga mansub kishilar bilan birlashib, milliy manfaatlarni himoya etishga harakat qiladi. Milliy birlik tuyg'usi milliy ongi, tarixiy ongi, tarixiy xotirasi va dunyoqarashiga chuqur singib ketgan millatlarga yorqin istiqbolga ega bo'ladi, o'z maqsadlariga erishadi. Ularni itoatli qullarga aylantirish oson bo'lmaydi. Milliy birlik, mas'uliyat tuyg'usi zaiflashishi mamlakat, xalq hayotida sodir bo'ladigan ma'naviy inqirozlarning bosh sabablaridandir. Milliy onglilik, tarixiy ong, tarixiy xotira millat o'zini o'zi mustaqil idora qila olishini ham ifodalaydi. Buning uchun tarixiy ong va tarixiy xotira milliy ong elementlari sifatida kishilarning dunyoqarashi darajasiga ko'tarilishi kerak, chunki "xotirasi bo'lmagan, tarixini unutgan, o'z ajdodlarining qadriga etmaydigan millatning istiqboli yo'q. Bu haqiqatni kishilik tarixi isbotlab turibdi"⁶⁹. Ayni mahalda "xotira deganda biz bu foniy dunyodan o'tgan ajdodlarimizni eslash, ularning chirog'ini yoqib, ezgu ishlarini davom ettirishni tushunamiz. Bu xalqimizga xos azaliy fazilatdir"⁷⁰. Milliy birlik, birdamlik, hamkorlik, hamdardlik g'oyasi iqtisodiy, siyosiy, ruhiy mustaqillikka erishish masalalarini ham o'z ichiga oladi. Iqtisodiy, siyosiy, ruhiy jihatdan boshqalarga qaram bo'lgan mamlakatda mustaqil milliy davlat barpo etish, milliy manfaatlarni himoya qilish qiyin. Milliy birlik, birdamlik barqaror bo'lgan joydagina milliy davlat, til, madaniyat, qadriyatlar, an'analar yuksalib, milliy maqsadlar va manfaatlar amalga oshishi uchun keng imkoniyatlar yuzaga keladi.

Milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira milliy birlik — milliy iroda, milliy vijdonning ham asosidir. Milliy birlik oldin kishilarning qalbida mafkura, e'tiqod, axloq, iroda, burch, vijdon sifatida shakllanadi, shundan keyingina katta tarixiy, ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ahamiyat kasb etadi va dunyoqarashga ta'sir ko'rsatadi. Ayni mahalda tarixni ob'ektiv, chinakam bilish milliy ongni shakllantiribgina qolmay, shaxsni separatizm yuzaga kelishidagina emas, balki

⁶⁹ Karimov I.A. Xotira chirog'i o'chmaydi. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 1999. T.7. – B.407.

⁷⁰ O'sha joyda. – B.407.

diniy ekstremizm, millatchilik va shovinizmdan ham himoya qilishda ishonchli qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillikni qo'lga kiritish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalana bilish ham milliy iroda, milliy vijdon tuyg'usi qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Mustamlakachilik davrlarini qo'msash, qanday sharoitda, kimning qo'li ostida yashasak ham qornimiz to'q, ustimiz but bo'lsa, bizga shuning o'zi etarli, deb o'ylash milliy ong, iroda, e'tiqod zaifligining belgisidir. Milliy iroda milliy manfaatlarni himoya qilishda ma'lum qiyinchiliklarga bardosh bera bilish hamdir. Milliy birlik tariximiz va taqdirimiz birligini ham anglashdir.

Millat vakillari o'rtasida birdamlik, ahillik, hamjihatlik, umumiy maqsadlar yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib, qo'lni qo'lga berib harakat qilish mas'uliyati faqat shu asosdagina shakllanadi. Mahalliychilik, guruhbozlik milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira darajasi pastligidan, kishilar o'zlarining bir etnik guruhga mansub ekanliklarini chuqur anglab etmaganligidan, dunyoqarashning milliy zamini zaifligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, o'z taraqqiyot yo'lini tanlab olgan hozirgi sharoitda mahalliychilikka, guruhbozlikka qarshi kurash olib borish katta amaliy ahamiyatga ega. Yoshlar, qaysi viloyatdan bo'lishidan qat'i nazar, bir millatning vakili ekanliklarini, milliy birlik va birdamlikni ta'minlabgina O'zbekistonni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish mumkinligini chuqur anglab etmoqlari kerak. Milliy birlik tuyg'usi kishilarning qalbida chuqur tomir otmasa, imon va e'tiqodga aylanmasa, millatning istiqboli porloq bo'lmaydi, milliy ong o'smaydi va mamlakat rivojlanmaydi. Milliy ongda, tarixiy ongda, tarixiy xotirada milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligi aks etishi jahondagi barcha xalqlarning tarixi va taqdiri bir-biri bilan bog'liqligini bilish natijasidir⁷¹.

Bu bog'liqlik jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida yana ham yorqin ko'zga tashlanmoqda. O'zbekistonning istiqboli o'z imkoniyatlarimizgagina emas, balki boshqa xalqlar, mamlakatlar bilan do'stona hamkorlik va aloqalarimiz

⁷¹ Qarang: Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish – davr talabi. – T.: Mehnat, 2000. – B.9– 16; Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – T.:O'zbekiston, 1997. – B. 15– 31.

rivojiga, jahonda tinchlik, barqarorlik mustahkamlanishiga ham bog'liqdir. Qo'shni mamlakatlarda bo'ladigan qonli voqealar faqat qardosh xalqlarning fojiasi emas, yonma-yon yashayotgan xalqlarning ham rivojiga salbiy ta'sir etuvchi bir omildir. "Qo'shning tinch — sen tinch", degan o'zbek maqolining mazmunida ham shu fikr ifoda etilgan. Shu sababdan ham, mustaqil O'zbekistonning istiqboli haqida o'ylar ekanmiz, qo'shni mamlakatlarda bo'layotgan voqealarga befarq qaray olmaymiz, ularning tinch taraqqiyotidan biz ham manfaatdormiz.

Milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira rivojlanishi milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni tiklash, o'rganish, hayotga keng joriy qilish bilan ham bog'liqdir. Milliy o'zlikni anglash jarayoni chuqurlashishining asosiy shartlaridan biri ham shudir. Biz o'zbeklar insoniyatning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy madaniy meros, buyuk qadriyatlarning egasimiz. Ota-bobolarimizdan qolgan ulkan moddiy va madaniy merosni bir daryo deb tasavvur etsak, bu boradagi bilim va tasavvurlarimiz hozircha undan bir tomchi, xolos.

Yaqin – yaqinda o'z madaniy merosidan bexabar bo'lib qolgan millatlar orasidan o'rin olgan edik. Bu bizning milliy loqaydligimiz bilan belgilangan fojia emas, balki 135 yil davomida izchillik bilan amalga oshirib kelingan mustamlakachilik siyosatining natijasidir. Hozirgi kundagi eng muhim vazifalaridan biri ham feodal tarqoqlik, mustamlakachilik va sovet tuzumi davrida kelib chiqqan g'aflat uyqusidan tezroq uyg'onish, millatimizning iste'dodi, qobiliyati, qadru qimmatini jahonga to'laroq namoyon etish, yoshlarni tarixiy meros va qadriyatlarimiz bilan yaxshiroq qurollantirishdir. Toki o'zbeklar kim ekanini ularning o'zigina emas, balki jahondagi boshqa xalqlar ham yaxshi bilsin. Yaqin vaqtga qadar o'tmish ajdodlarimiz jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi o'zimizdan ko'ra, dunyodagi boshqa ko'plab mamlakatlarda ma'lum va mashhur edi⁷².

Tarix o'tmish voqealarning oddiy bayoni emas, balki katta tarbiyaviy omil hamdir. Tarixiy voqealarni bilish asosida kishilarda o'z xalqiga nisbatan hurmat,

⁷² Qarang: Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish – davr talabi. – T.:Mehnat, 2000. – B. 21– 26.

muhabbat tuyg'ulari shakllanadi, yoshlar ota-bobolarining qilgan ishlari bilan faxrlanishni o'rganadilar, shu asosda milliy iftixor singari etuk ma'naviy fazilatlar shakllanadi, milliy ong o'sadi, dunyoqarash mustahkamlanadi.

Tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong milliy burch va mas'uliyatni anglash hamdir. Mas'uliyat har bir fuqaro o'z manfaatlarini millat, milliy davlat manfaatlarini bilan bog'lay olishidir, bu boradagi o'z burchini his qilishidir. Milliy burch va mas'uliyatning muhim jihati milliy manfaatlarni anglashda ko'rinadi. Shaxs va uning manfaatlarini siyosiy aqidalar soyasida qoldirib ketgan, mavhum ijtimoiy manfaatlarning to'la hukmronligini ta'minlashga moslashtirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar, shunga asoslangan mafkura barham topadi⁷³.

Shunday qilib milliy o'zlikni anglash shaxs dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil sifatida tarixiy ong va xotira, milliy ma'naviyat va meros bilan o'zaro dialektik aloqadorlikda millat va xalq taraqqiyotini belgilaydi.

1.3. Milliy o'z-o'zini anglash va yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xosligi

Insoniyat falsafiy tafakkuri tarixida "o'zlikni anglash" masalasi turlicha talqin etilgan. Inson jismining o'tkinchiligi, ruhining esa abadiyligi (cherkov otasi Avgustinning "tan ruh uchun qafasdir" fikrini eslang) masalasini zohiriy (dunyoviylik nuqtai nazaridan) talqin etganlar inson o'ziligini dunyodan yuz o'girib, yolg'izlikda ibodat bilan kun o'tkazgandagina, oddiy so'z bilan aytganda, tarkidunyo qilgandagina topishi mumkin degan fikrga keladilar.

Islom Sharqida dunyoni o'tkinchi bilib, ijtimoiy faollikdan qochish, faqat Olloh zikri bilan yashash, tamoyili alohida o'ringa ega. Ularning falsafasida "tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faollikdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar"⁷⁴. Tasavvufdagi "uzlatga chekinish" g'oyasini ham ba'zan to'g'ridan-to'g'ri tarkidunyochilik

⁷³ Qarang: Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish – davr talabi. – T.:Mehnat, 2000. – B. 15– 21.

⁷⁴ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. - T.: 1996. – B. 15.

ma'nosida talqin etishga urinishgan. Ammo "o'zlikni anglash" bosh maqsadi bo'lgan tasavvuf ahli va tasavvuf g'oyalaridan quvvat olgan ulug' mutafakkirlarimiz insonni insonga, Vatanga, xalqiga bo'lgan, har qanday g'arazdan holi, pok mehrni targ'ib qilganlar.

Xususan, ulug' mutasavvif alloma Bahouddin Naqshband inson o'z-o'zini anglab etish orqali Haqni, haqiqatni taniydi, Alloh vasliga etishadi, deydi. Ammo hayotining yakuniy maqsadi bu emas. Dilida Alloh ("dilda yor") jo bo'lgan kishi ishga kirishmog'i ("dast ba kor"), ezgu ishlarga qo'l urishi lozim. U aslo eldan, xalqdan o'zini ayirmasligi, aksincha Orif odam Haqni dilda tutgan holda xalq bilan birga bo'lishi lozim ("Xilvat dar anjuman").

Shu nuqtai nazardan, Farididdin Attor dunyoni qaynab turgan qozonga o'xshatib, insonni ana shu "qozon"da qaynashga undagan edi. SHundagina inson pishib etiladi, komillikka erishadi. Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va yurt qayg'usida yashagan jadid ziyolilar yana o'nlab, yuzlab ulug' ajdodlarimiz hayoti, o'z taqdirilarini xalq, millat, butun insoniyat taqdiri bilan uzviy bog'liqlikda ko'rganlar. Inson o'zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko'rishni orzu qilgan hazrat Alisher Navoiy buni aniq qilib shunday ifoda etgan edi:

"Odami ersang demagil odami -

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami".

"O'zlikni anglash", "Milliy o'zlikni anglash" va "Milliy istiqlol g'oyasi" tamoyillari uzviy bir-biri bilan bog'liq. Mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki chorakam bir asr davomida hukmronlik qilgan istibdod nazariyasi va mafkurasi o'z-o'zini anglash hissini yo'qotib bordi. Milliy o'z-o'zini anglash masalasi falsafadan deyarli quvib chiqarildi. Uning sababi milliy o'z-o'zini anglash - bu mustaqillik g'oyasi bilan bog'liq edi. Shunga ko'ra, milliy istiqlol g'oyasi tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishidan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezoni sifatida xalqimizning tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy bayroqdir. Sharq va G'arbda, Osiyo va Evropa xalqlari hayotida ham o'zlikni anglash tuyg'usining uyg'onishi, pirovard natijada ularning yuksalishiga,

birlashishiga, boshqa xalqlar bilan ijobiy o'zaro manfaatli hamkorlikka kirishuviga turtki bo'lgan. Shu nuqtai nazardan milliy g'oyani - milliy o'zlikni anglatuvchi omil deyish mumkin.

Demak, millat o'zini xalq sifatida, el sifatida anglamasa, u o'zining sha'ni, qadr-qimmati, or-nomusi haqida qayg'urib, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini to'la his eta olmaydi.

Sharq donishmandlari ko'pchiligining falsafiy g'oyalarida sinkretik (ya'ni turlicha g'oyalarning bir butunlikda joylashuvi) va sinergetik (o'z-o'zini takomillashtiruvchi, keng, ko'p o'lchovli va ochiq tizimli) tafakkur uslubining ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Zero, ma'naviy qadriyatlarga, hayotni e'zozlashga undaydigan yuksak a'mollarga e'tibor susayganda, jamiyat, davlat taraqqiyotdan to'xtaydi, inqiroz tomon yuz tutadi.

Bu haqda Alisher Navoiy shunday yozgan edi:

To hirsu havas xirmani barbod o'lmas,

To nafs u havo qasri baraftod o'lmas,

To zulmu sitam jong'a bedod o'lmas,

El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.⁷⁵

Demak, mamlakatimiz obod bo'lishi, ravnaq topishi, xalqimiz farovonligi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borish bilan bevosita bog'liq. "Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak"⁷⁶.

Insonning komillik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'rnini qanchalik bilgani, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'zining qadr-qimmati xalqning, millatning qadr-qimmati bilan nechog'lik bog'liq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqealarga

⁷⁵ Alisher Navoiy. Hikmatlar. T., O'zbekiston. 2011, -B.345

⁷⁶ Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. –T.: O'zbekiston, 2003. - B. 34.

daxldorligini anglaydi. Yurtimiz mustamlakachilik asoratiga tushgan XX asr boshlarida yurt qayg'usida yongan Fitrat o'lkaning boshiga yog'ilgan balolarda avvalo o'zini aybdor deb hisoblagani bejiz emas. Amir Temur ruhiga murojaat etib, u shunday yozgan edi: "Yuqorida aytdigim ishlarning hammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim qildim.

Sening Turoningni o'zim talatdim,

Sening turkligingni o'zim ezdirdim,

Sening omonatlaringga xiyonat o'zim qildim"⁷⁷.

Shu emasmi komillikning belgisi? Milliy o'ziligini anglagan insongina, Fitrat kabi:

"Turonim, sendan ayrilmoq - mening uchun o'limim,

Sening uchun o'lmoq - mening tirikligimdir"⁷⁸, - deya baralla ayta oladi,

Najmiddin Kubro singari jonini saqlashni emas, yov bosgan yurtini himoya qilib, jon taslim berishni afzal ko'radi.

Bu o'zlikni anglashning aniq ifodasi, yurt, Vatan uchun o'zini bag'ishlash hamdir.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida shaxs, uning faoliyati, qobiliyati va imkoniyatlari, manfaatlari tobora serqirra bo'lib ko'zga tashlanmoqda. Lekin bu yangi sharoitlar va imkoniyatlar har bir shaxs faqat o'z manfaatlari doirasida qolib ketib, boshqalar bilan ishi bo'lmasligi kerak, degan ma'noni bildirmaydi. Shaxsiy xudbinlik ham dunyoqarash zaifligining ko'rinishidir. Agar kishilar o'z maqsadlari qobig'iga qolib, ularning har biri alohida dunyo bo'lib qolsa, manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham kuchayib ketadi. Bunday holda ma'naviy tubanlashish boshlanadi, jamiyatda ijtimoiy falokatlar yuz beradi. SHaxsiy manfaatlar muammosi qanchalik tez va har tomonlama hal etilmasin, baribir, har bir inson mavjud ijtimoiy munosabatlar majmuasiga kiradi. U qanchalik aqlli, tadbirkor, ishbilarmon bo'lmasin, butun hayotiy faoliyati odamlar jamoasidagi, millat, davlat hayotidagi munosabatlardan tashqarida bo'lmaydi. Bu boradagi bog'liqlik har bir shaxsga

⁷⁷ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. T. 1. – T.: Ma'naviyat, 2000. - B. 34.

⁷⁸ O'sha manba. -B. 32.

muayyan burch va mas'uliyat talablariga rioya qilish majburiyatini ham yuklaydi. Insonlar muayyan jamiyatda birlashib yashashining asosiy shartlaridan biri ham milliy va fuqarolik mas'uliyati birligi hisoblanadi. Mas'uliyatni sezmay, o'z huquqi uchun kurashish ham ma'naviy zaiflikning belgisidir. Burch, mas'uliyat tuyg'usi inson o'z haqqi, huquqini, jamiyat oldidagi burchini anglashiga asos bo'ladigan ma'naviy zamindir. Chunki "bunga tarix guvoh... bizga bergan buyuk ne'mat — ma'naviyatga hech qachon hiyonat qilmaganmiz, qilmaymiz ham"⁷⁹.

O'z huquqini tanigan, talab qilgan inson boshqalarning ham huquqini hurmat qilmog'i zarur. Aks holda shaxsning o'z huquqi uchun kurashishi xudbinlikka aylanadi. Jamiyatda taraqqiyot, tinchlik, totuvlik, osoyishtalik, insonparvarlik, hamkorlik va hamjihatlik qaror topsagina shaxsning orzu-umidlari ushaladi. Har bir shaxs o'zini jamiyatning, xalqning bir bo'lagi deb bilishi, manfaatlar mushtarakligini tushunishi, faoliyatida o'z xalqi, Vatani, boshqa millatlar, mamlakatlar va butun insoniyat manfaatlarini ham e'tiborga olishi unda tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong birligiga asoslangan dunyoqarashi etukligining ifodasidir.

Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini to'la o'rganish, rivojlantirish, hayotga tezda va samarali tadbiq etish ham milliy ong o'sishining, shu asosda shaxs faolligi kuchayishining yo'llaridandir.

Biz O'zbekistonning buyuk kelajagiga hashamatli bozorlar, masjidlar orqali emas, balki zamonaviy fan va texnika yutuqlarini to'la egallab, shular asosida xalq ma'naviyatini shakllantirib, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlarning eshiklari orqali kirib boramiz. Shu sababli ham xalq ta'limi tizimini isloh qilish, zamonaviy fan, texnika, madaniyat asoslarini chuqur egallagan kadrlarni tarbiyalash davlatimiz siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu ham milliy ong davr talablari, imkoniyatlari va ehtiyojlari asosida o'sishining asosiy shartlaridandir⁸⁰.

⁷⁹ Normatov I. Ma'naviyat – bebaho boylik. // Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2006. – B. 70.

⁸⁰ Rahmonov R., Fayziev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T., O'zbekiston, 2008. – B.49.

Yetuk milliy ong boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, qadr-qimmatini hurmat qilishni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston xududi hamma vaqt ko'p millatli bo'lgan. Bu o'lkada ming yillar ilgari ham, o'zbeklardan tashqari, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar va boshqalarning ota-bobolari yashaganlar. Milliy munosabatlarni ijtimoiy adolat mezonlari asosida rivojlantirish, barcha xalqlarning tili, madaniyati, urf-odatlariga hurmat bilan qarash, ularni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, hamma sohada do'stlik, ahillik, hamjihatlik, hamkorlikni ta'minlash mustaqil o'zbek xalqi milliy ongi, dunyoqarashi o'sishi darajasining ko'rsatkichidir.

Milliy o'zlikni anglashga intilish, ayni paytda, mentalitetdagi o'zgarishdir. Milliy o'zlikni anglash millat hayotida uning rivojlanish muammolari, hozirgi va uzoq muddatli manfaatlarni amalga oshirish omillari haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini bergan holda ilg'or tarixiy vazifani ado etayotganligi uchun ham, milliy xarakter mohiyatini ijtimoiy usullar, ilmiy-nazariy tahlillar, kontseptual yondashuvlar ko'magida tadqiq etishning amaliy zaruriyati va muhimligi muqarrar ravishda muttasil ortib bormoqda⁸¹. Mentalitetdagi o'zgarishlarning milliy xarakter takomili va o'zgarishlaridagi o'ziga xosligi haqida amerikalik professor D.Karlayl o'zining "O'zbekiston va O'rta Osiyo: o'tmish va hozirgi zamon bor bo'y-basti bilan" kitobida: "O'zbeklar psixologiyasida jamoatchilik alomati tarzida individualizm bilan qovushib ketgan. O'zbeklar amaliy ishni yaxshi ko'radilar, tomoshabinlikni emas, balki faol hayot kechirishni afzal ko'radilar. Hayotning moddiy, pul jihatlariga qiziqish ular uchun tugal hayotiy qadriyat emas, biroq faoliyat maqsadini ham, mazmunini ham etarli darajada belgilab beradi. O'zbeklar, ishning muvaffaqiyatiga umid bog'lagan holda, mahrumliklarga ham chidashga qodirdirlar. Ular yuksak intizomlilik bilan ham farqlanib turishadi. O'zbek milliy xarakteridagi bu barcha xususiyatlar mamlakat iqtisodiy hayotini bozor yo'nalishida modernizatsiya qilishning uddasidan muvaffaqiyat bilan

⁸¹ Ozod Ota Mirzaev. O'zbekistonliklarning milliy o'zligi // Ijtimoiy fikr – inson huquqlari. №1, 2006. – B. 46.

chiqishining salmoqli kafolatidir. Bu faqat og'izda, ko'rsatmalarda va deklaratsiyalarda bo'lmay, balki amalda bo'ladi"⁸², – deb yozgan edi.

Evropa jamiyati hayotida ulkan siljishlar sodir bo'layotgan XVIII asrda mashhur frantsuz ma'rifatchisi Jan Jak Russo milliylik, milliy xarakter haqida shunday yozgan edi: “Biz tayanishimiz kerak bo'lgan birinchi tamoyil – milliy xarakterdir: har bir xalq milliy xarakterga ega yoki ega bo'lishi lozim; xalqda u bo'lmagan taqdirda ishni unga bunday xarakterni berishdan boshlash kerak bo'lardi”⁸³. Bir qarashda Russoning fikrida ma'lum bo'rttirish bordek tuyuladi. Lekin uning vatani Frantsiya tarixiga nazar tashlansa, bu fikr tarixiy asosga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Dastlab qirol Genrix IV Frantsiyaning milliy davlat sifatidagi yaxlitligini tikladi. Uning ishini davom ettirgan va Frantsiyani amalda boshqargan Lyudovig XIII ning birinchi ministri – kardinal Rishelʼe “Vatan va millat manfaatlari barcha narsadan ustun”, degan g'oyani ilgari surdi. Mamlakatdagi ichki nizolarga barham berdi, siyosiy, ijtimoiy, madaniy islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, o'zi asos solgan Frantsuz Akademiyasiga umumfrantsuz adabiy tili lug'atini tuzishni topshirdi, san'at va adabiyotga homiylik qilib, davlat yaxlitligi va xalq birligini ta'minlashga qaratilgan o'ziga xos milliy g'oyani targ'ib etishga safarbar etdi. Shu tariqa Vatan va xalq yo'lidagi fidoiylilikni oliy burch darajasiga ko'tardi, ishonch bilan aytish mumkinki, Frantsiyaning o'sha davrda qudratli mamlakatga aylangani, hamda keyingi asrlar mobaynida Evropaning o'ziga xos madaniy markazi bo'lib qolganligi ayni shu davrda shakllantira boshlagan “milliy xarakter” bilan bog'liq bo'ldi. Ana shu tarixni chuqur bilgan Russo: “Har qanday yaxshi o'zgarishlarning umumiy maqsadlari har bir davlatda mahalliy shart-sharoit va aholining o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadigan munosabatlarga muvofiq shakl olishi kerak”⁸⁴, degan fikrga keldi. Insoniyat tarixidagi bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shu o'rinda yurtboshimiz I.Karimovning: “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali

⁸² Gafarli M.S., Kasaev A.I. Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. – T.: O'zbekiston, 2001. – B. 207.

⁸³ Руссо Ж.Ж. Трактаты. - М., 1969. С.268.

⁸⁴ Руссо Ж.Ж. Трактаты. - М., 1969. С.480.

bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz”⁸⁵, degan so’zlari naqadar chuqur asosga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Ammo bu - milliy o’zlikni anglashni o’z milliy qobig’iga o’ralish, o’zga xalqlardan o’zini ustun qo’yish degan emas, albatta. Qolaversa, O’zbekiston (O’rta Osiyo) hududida azal-azaldan turli elat va millat vakillari yonma-yon inoqlikda yashab kelishgan. Bag’rikenglik, mehmondo’stlik o’zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan qadriyatiga aylangan. “Mehmon otangdek ulug’”, deydi xalqimiz va ostonasidan xatlab o’tgan begona odamni ham uyining to’riga olib chiqadi, o’zi emasa-da, mehmonni siylaydi.

O’zligini anglagan odamda mehr, muruvvat kuchli bo’ladi. Manmanlik kabi salbiy qusurlarni xush ko’rmaydi. “Manmanlik, - degan edi mashhur ma’rifatparvar Abdulla Avloniy, - johilona kibru g’ururdan paydo bo’ladurgan eng yomon xulqlarning biridurki, kishini har erda ma’yus va mahjub qilur”⁸⁶. Avloniy inson manmanligi haqida gapirayapti. Agar manmanlik kasaliga millat, xalq yoki biron bir din vakillari uchrasa ne oqibatlarga olib keladi? Misollar talaygina. Birgina o’z xalqi ongiga “oliy irq”qa mansublik g’oyasini singdirishga uringan fashizmning butun insoniyat boshiga yog’dirgan balolarni yoki buyuk davlatchilik shovinizmi sobiq Ittifoqda yashagan elat va xalqlarga keltirgan azob-uqubatlarni eslash kifoya. Ayrim siyosatdonlar bugungi kunda ham diniy, irqiy, milliy ziddiyatlarni avj oldirishga harakat qilayotgani va oqibat o’laroq dunyoning turli chekkalarida urush olovi alanganayotgani barchaga ma’lum.

Mashhur frantsuz gumanist yozuvchisi fashizmga qarshi urushda jonini fido qilgan Antuan de-Sent-Ekzyuperi qayg’u va hasrat bilan odamlarni bir-biridan ayiradigan tajavvuzkor millatchilik, irqchilik, mustamlaka bosqinlari va urushlar haqida fikr yuritib: “Turli tsivilizatsiyalar bir-birida farqlanishi yomon emas, ... dahshatlisi, ularning bir-birini eyishga harakat qilishidir”, - degan edi. Ko’pni ko’rgan, eng og’ir ishlarni zimmasiga olishdan qo’rqmagan Sent-Ekzyuperi insonning o’zini anglashini ahli bashar oldidagi mas’uliyat hissi bilan bog’laydi.

⁸⁵ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T. 7. –T.: O’zbekiston, 1999. B. 144.

⁸⁶ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: Ma’naviyat, 1998. -B. 80.

“Inson bo’lish - bu mas’uliyat sezishidir, - yozadi u, - o’zingga aloqasizday tuyulsa ham qashshoqlik oldida andisha qilishingdir. O’z gashtingni qo’ya turib, dunyodagi bunyodkorlikka ko’maklashganingni his etishingdir”⁸⁷. Lo’nda qilib aytganda, o’zga millat va xalqlarni kamsitgan millat hech qachon buyuk bo’lolmaydi. Buyuk Alisher Navoiy bu haqda shunday deydi:

“Naf’ing agar xalqqa beshak erur,

Balki bu naf o’zingga ko’prak erur”.

Shuning uchun ham milliy o’zlikni anglash, bir tomondan, “O’zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e’tiqodi, urf-odat va an’alarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko’maklashish”⁸⁸ ni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, “O’zbekiston o’z tashqi siyosatida barcha davlatlar bilan teng huquqlilik va o’zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni asrab-avaylash, xalqaro huquq me’yorlarining ustuvorligi kabi tamoyillarga amal qiladi”⁸⁹. Demak, milliy istiqlool g’oyasi o’zlikni anglash, milliy o’zlikni anglash va umumbashariy o’zlikni anglashni uzviy bog’liqlikda ko’rishga da’vat etib, milliy va umuminsoniy mohiyat ham kasb etadi.

Milliy o’z-o’zini anglashning etukligi milliy tilga munosabatda ham yaqqol namoyon bo’ladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tilga e’tibor — elga e’tibor ekanini ko’rsatib o’tgan edi. Har bir xalqning o’z tiliga e’tibori ham milliy o’zligini anglashi darajasining ifodasidir.

Respublikamizda tarixiy ong, tarixiy xotira, milliy ong, mas’uliyat tuyg’usi yuksalishi mahalliy aholining o’z ona tili taqdiriga bo’lgan munosabatida yaqqol namoyon bo’ldi. 80-yillarning o’rtalari va oxirida o’zbek tiliga davlat tili maqomi berishni talab qilish katta ijtimoiy harakatga aylandi. O’zbekiston Oliy Kengashining 1989 yil 21 oktyabrda bo’lib o’tgan sessiyasida O’zbekiston

⁸⁷ Tafakkur gulshani. Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so’zlari. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. -B. 34.

⁸⁸ Milliy istiqlool g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O’zbekiston, 2000. -B. 35.

⁸⁹ O’sha yerda. -B. 39.

Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Bu millatimiz tarixidagi katta voqeadir. Ish yuritishda, ilmiy tadqiqot ishlarida, ta’lim-tarbiya sohasida o’zbek tilini qo’llashni cheklashga shu yo’l bilan barham berildi. Dunyodagi eng boy tillardan biri bo’lgan ona tilimiz yana o’z qudratini to’la namoyon qilish, rivojlanish imkoniga ega bo’ldi. Lekin bu tadbirlar o’zbek tiliga alohida imtiyozlar yaratib berish uchun qilingan emas. Gap o’zbek tili respublikamiz ma’naviy hayotida o’ziga munosib o’rinni egallashi ustida bormoqda.

Tarixiy ong, tarixiy xotira, milliy ong millatning obro’si, qadr-qimmatini ham himoya qila bilishdir. O’zbeklar, qars ikki qo’ldan chiqadi, deb bekorga aytmaydilar. Boshqa xalqlarning milliy xususiyatini, madaniyati, tilini, manfaatlarini hurmat qilar ekanmiz, o’z millatimizga ham shunday adolatli munosabatda bo’lishni talab qilishga haqqimiz bor. Aholining ayrim vakillari orasida o’zbek tilini mensimaslik kayfiyati hozir ham uchrab turadi. Ayrim kishilar ingliz, frantsuz, arab, xitoy tillarini o’rganayotgan bo’lsa ham, o’zbek tilini bilishga ikkinchi darajali vazifa deb qaramoqdalar. Boshqa tillarni o’rganish ma’naviy kamolot omili ekan, nima uchun o’zbek tili shu tushuncha doirasiga sig’may qoldi?

Tarixiy ongi, tarixiy xotirasi va milliy ongi etuk millat boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, qadriyatlariga qanchalik ko’p hurmat bilan qaramasin, birinchi navbatda o’z milliy ruhi, milliy ma’naviyati barqaror rivojlanishiga katta e’tibor beradi⁹⁰. Bu aslo inkor etib bo’lmaydigan ma’naviy ehtiyojdir. Hozir O’zbekistonda xalqimizning madaniy-ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy merosi, milliy davlatchilikni tashkil etish va mustahkamlash, axloq, odob borasidagi qadriyatlarni o’rganish, o’zlashtirish, rivojlantirish uchun qat’iy harakat boshlandi.

Bo’lib o’tgan voqealarning konkret sharoit va imkoniyatlar bilan belgilangan mohiyatiga tayanish o’tmishga to’g’ri baho berishning bosh mezonidir. Bu

⁹⁰ Saidov M. Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo’lmaydi. // Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo’lmaydi. – T.: O’zbekiston, 2006. – B.23– 35.

muammo tahlilida ham tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong qay darajada rivojlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ba'zan uchrab turadigan milliy kalondimog'lik ham etuk tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ongning belgisi emas. Tarixiy o'tmishga, madaniy merosga baho berishdagi biryoqlamalik hozirgi kunda ham yuz bermoqda. Bu ham vaqtinchalik ehtiros va hissiyotlarning milliy ongga, tarixiy ongga, tarixiy xotiraga ta'siri borligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning murakkab burilish davrlarida ba'zan ehtiros va hissiyotlar aql-idrokdan ustun kelib qolishi mumkin. Bu ham jamiyatdagi tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong rivoji hamda ma'naviy kamolot darajasi ko'rsatkichlaridan biridir. Har qanday sharoitda ham tarixiy jarayonlar mohiyatini baholashga bosiqlik, aql bilan yondashmoq zarur. Xalqimiz, jahl chiqqanda aql ketadi, jahlni ham aql boshqarsin, deb bekorga aytmagan.

O'tmishni qoralashga, kamsitish va soxtalashtirishga qarshilik uni ideallashtirishga ham olib kelmasligi kerak. Bunday hol ham milliy ong o'sishidagi biryoqlamalikni ko'rsatadi. Tarixni, milliy madaniyatni va milliy xususiyatlarni ideallashtirish hayot haqiqatidan uzoqlashishdir. Tarixni ideallashtirish ilmiy haqiqatni izlash yo'lidagi biryoqlamalikning ikkinchi tomonidir.

Milliy uyg'onish jarayoni tezlashayotgan hozirgi kunlarda bunday hollarning kuchayishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ayrim ziyolilar ba'zi hollarda tarixiy voqealarni yoritishda, shaxslar faoliyati va merosiga baho berishda, milliy va diniy an'analar, rasm-rusmlar, urf-odatlarni baholashda bo'rttirishlarga yo'l qo'yayotganliklarini hozir ham ko'rish mumkin. Bu harakatlar o'tkinchi bo'lsa ham, taraqqiyotning mas'uliyatli davrlarida yoshlarning ijtimoiy, tarixiy va milliy ongi, tarixiy xotirasi, dunyoqarashi noto'g'ri shakllanishiga olib keladi.

Tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy ong o'tmish saboqlarini to'g'ri anglash bilan birga, kelajakni ham ko'ra bilishning ma'naviy zamini bo'ladi⁹¹. Tafakkuri salohiyati kuchli bo'lgan inson o'z kelajagiga komil ishonch bilan qaraydi. Etuk milliy ong tarixiy ong va tarixiy xotira bilan birlikda o'tmish merosi va an'alariga

⁹¹ Qarang: Kayumov U.K. Роль национального самосознания в формировании жизненной позиции молодежи Узбекистана. // Общественные науки в Узбекистане.— Ташкент, 2003. — № 6. — С. 53– 56.

ko'r-ko'rona taqlid qilishni istisno etadi. Istiqbol muammolariga o'tmishdagi tajriba, ishlab chiqarish shakllari, turmush tarzi, axloq-odob normalarinigina emas, balki hozirgi davr imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini ham hisobga olib yondashmoq kerak. Taraqqiyot yo'lidan olg'a qarab borar ekanmiz, bu sharoitda faqat o'z o'tmishimizgagina boqmay, boshqa rivojlangan mamlakatlar va xalqlar orttirgan ijobiy saboqlardan ham o'rnak olmog'imiz zarur. Axloq, odob borasidagi milliy merosimizga qanchalik mehr, e'tiqod bilan qaramaylik, umuminsoniy qadriyatlarni chetlab o'tib, ma'naviy kamolot cho'qqilariga chiqa olmaymiz. Bu boradagi milliy qadriyatlarimiz ma'naviyatimizning asosi bo'lsa ham, hozirgi davr talablariga mos keladigan bilimli, ishbilarmon, yuksak axloq va odobli shaxsni tarbiyalash uchun etarli bo'lmaydi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish borasidagi tarixiy tajriba to'g'risida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Bu borada ham o'tmish tajribasini ideallashtirish, uni milliy istiqbolning yagona yo'li deb qarash xatodir. O'zbeklar o'tmishda mirishkor dehqon, mohir hunarmand va tijoratchi bo'lgani hammaga ma'lum. Lekin ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotimizning istiqboliga yondashishning davr taqozosi bilan belgilangan yangi mezonlari ham borligini unutib bo'lmaydi⁹².

Mustaqil taraqqiyotimizning bosh omili hozirgi zamon fani va texnikasi yutuqlarini to'la egallash, rivojlantirish, hayotga tatbiq qilishdir. Bu yo'l to'g'riligini rivojlangan mamlakatlarning tajribasi ham isbotlamoqda. Mustaqil O'zbekiston uchun malakali, bilimli ishchilar, muhandislar, boshqa mutaxassislar, fan va texnikani rivojlantirishga qodir bo'lgan olimlar kerak. Bularsiz O'zbekistonni kelajagi buyuk davlatga aylantirish mushkul. Davr ruhiga mos milliy o'zligini anglash bu muammolarni ham o'z ichiga oladi.

Milliy ongning hamda uning tarkibida bo'lgan tarixiy ong va tarixiy xotiraning shaxs dunyoqarashi shakllanishiga va milliy ma'naviy kamolotiga ta'sirining ayrim tomonlari tahliliga ko'ra quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

⁹² Qarang: Boyto'raev T. Ajdodlar merosi va komillik tarbiyasi. G`G`Muloqot. – Toshkent, 2005. – № 2. – B.26– 27.

— milliy ong – ijtimoiy ongning bir shakli. Bu — kishilar o'zining ma'lum etnik guruhga mansubligini, vatan tarixining ajdodlar qoldirgan an'analar, marosimlar, meros va amaliy tajribani, milliy manfaatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq ravishda chuqur anglash, muayyan mushtarak g'oya va mafkuraga tayanib, o'z xalqi va vatanining istiqloli hamda istiqboli yo'lida fidokorona xizmat qilish, boshqa millatlarga ham adolatli munosabatda bo'lib, ularning o'ziga xosligi va manfaatlarini hurmat qilishdir;

— milliy o'zlikni anglash mohiyati jihatidan keng tushunchadir: uning tarkibida ko'p elementlar bo'lib, tarixiy ong bilan tarixiy xotira ham shu elementlar qatorida muhim o'rni tutadi. Shu sababli milliy ongning shaxs dunyoqarashiga ta'sir etish imkoniyati katta. Milliy ong o'z tarkibidagi tarixiy ong va tarixiy xotira yordamida shaxs dunyoqarashiga milliy tarix, milliy ruhiyat, milliy ma'naviyat, milliy manfaatlarni anglash, ularni qadrlash, himoya qilish, boshqa millatlarga, ularning madaniyatiga, tarixiga xolisona yondashish orqali o'zi bilan bog'liq fazilatlarni kiritadi. Yoshlar dunyoqarashi mustahkamlanishi ham, o'z navbatida, milliy ongning yanada o'sishiga ta'sir etadi;

— hozirgi kunda shaxsda umuman dunyoqarashni shakllantirish emas, balki uni milliy manfaatlarni tarixiy ong bilan, tarixiy xotira bilan, milliy ong vositasida anglash bilan chuqurroq bog'lash zaruriyati kuchayib bormoqda. Mustaqil davlatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, g'oyaviymafkuraviy asoslari mustahkamlanib borayotgan hozirgi sharoitda bu ishning ahamiyati kattadir. Har bir fuqaroga barcha masalalarga mamlakat, millat manfaatlari nuqtai nazaridan yondashishni ham o'rgatmoq kerak. Bu ishlar o'quv yurtlarida, umuman barcha yoshlar o'rtasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari tizimida katta o'rin olmog'i lozim. Zero, mustaqillik sharoitida tarbiya va ta'lim o'zining milliy jihatlarini yanada kengroq namoyon etmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi uch bosqichda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Birinchi bosqich — 1997-2001 yillar; ikkinchi bosqich — 2001-2005 yillarni o'z ichiga oldi. Uchinchi bosqich 2005 yilda boshlandi. Ulkan ishlar amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda hozirgi kunga kelib yosh avlodning

uzluksiz ta'limi va tarbiyasi tizimi: maktabgacha ta'lim va tarbiya, maktab ta'limi tizimi, maktabdan tashqari ta'lim tizimi, o'rta maxsus ta'lim tizimi, oliy ta'lim tizimi, malaka oshirish muassasalari tizimi, aspirantura, Oliy attestatsiya komissiyasi barqaror shakllandi.

Yoshlarning ta'limi va tarbiyasi sohasida o'tkazilgan hamda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyatli bajarilib, tarixiy ong va tarixiy xotirani, har tomonlama uyg'un rivojlangan, ilmiy dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlovchi, xalqimizga yot ta'sirlarga berilmaydigan shaxsni, Vataniga muhabbat ruhida tarbiyalanayotgan, O'zbekistonning buyuk kelajagini uning bugungi kuniga aylantirishga qodir yoshlarni shakllantirish va rivojlantirish borasida olib borilgan ishlar o'z samarasini bera boshladi.

Hozirgi paytda yoshlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda rivojlantirishda ijtimoiy vositalar, metodlar va shakllar ham katta rol o'ynamoqdaki, ularga yoshlarni ta'lim va tarbiyaning barcha darajalarida mafkuraviy tarbiyalash, ommaviy axborot vositalari: radio, televidenie, gazeta, jurnallar, muzeylar, turli yoshlar tashkilotlari, vatanimiz va jahon ilm-fani, madaniyati, san'ati va sportning rivojlanishi kiradi.

O'zbekiston yoshlarida tarixiy ong, tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglashni shakllantirish hamda rivojlantirishning ijtimoiy vositalari, shakl va metodlari bo'yicha chora-tadbirlar majmui avvalgi yillarda boy berilgan milliy qadr-qimmat tuyg'usini tiklashda, o'zbek davlatchiligining tarixiy sarchashmalari hamda uning qaror topishini bilishga yuqori darajada qiziqish uyg'otishda, or-nomus, burch hissini, vijdon, haqqoniylik, yot mafkuralarni qabul qilmaslik va ularga tanqidiy munosabatda bo'lishni shakllantirish hamda rivojlantirishda ko'maklashadi.

2-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI RIVOJLANTIRISH VOSITA VA USULLARI

2.1. Milliy o'zlikni anglashda ijtimoiy fanlar muhim vosita sifatida

Ho'sh, savol tug'iladi. G'arbning ilg'or mamlakatlari hayoti globallashuv ta'sirida salbiy transformatsiyaga uchrayotgan ekan, milliy o'zligiga katta havf tug'ilayotgan ekan, unda biz millatimizni bu tahdidlardan himoya qilishimiz uchun nima qilishimiz kerak? Dunyoqarashi endi shakllanib kelayotgan yosh avlodni bunday salbiy holatlardan qanday himoya qilishimiz mumkin? Bizning milliy tarbiya tizimimiz bunday vaziyatga tayyormi?

Bu kabi dolzarb savollarga javob topishimizda biz, avvalo bu masala dunyoqarashga oid bo'lganligi uchun ham inson dunyoqarashini shakllantiruvchi omillar va vositalardan qidirmog'imiz lozim. **Dunyoqarashni shakllantiradigan asosiy omil – bu ijtimoiy ongdir.** Ijtimoiy fanlar esa ijtimoiy ong shakllaridan bo'lib, global tahdidlarga qarshi tura oladigan dunyoqarashni qaror toptirishda aynan ular muhim vosita hisoblanadi.(4-ilog'iga qarang).

Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz - yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi - jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Albatta, bu masala bo'yicha ijtimoiy fanlar sohasida ma'lum ishlar qilinmoqda, ammo xolisona aytadigan bo'lsak, bu borada chop etilgan ko'pchilik darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ommabop adabiyotlarning ham, aksariyat soha mutaxassislarining ham saviyasi talab darajasida emasligini qayd etishga majburlamiz. Bunday noxush holatlarga barham berish vaqti keldi.

Hech shubhasiz, yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas.

Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik printsiplar mohiyatiga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.⁹³

Demak, qator ijtimoiy fanlar: falsafa, tarix, etika, estetika, ijtimoiy psixologiya, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, iqtisodiyot nazariyasi va boshqa fanlarning bor imkoniyatlarini mana shu faoliyatga safarbar qilmoq joizdir.

Falsafa fani inson hayotining mazmunini, insonning mohiyatini, ijtimoiy voqelikka munosabatini, global hodisalar mohiyatini va eng asosiysi o'z-o'zini anglashiga yordam bersa, tarix fani esa bu kontekstda insonning, millatning milliy o'zligini anglashiga, millatning o'zligini saqlab qolishiga ko'mak beradi.

Ammo masalaning muammoli tomoni shundaki, hozirgi globallashuv davrida falsafa fani ham keskin transformatsiyaga uchramoqda.

Endilikda insoniyat etakchi qatlami hozirgi globallashgan hayot jarayonida fanning falsafadan, asl donishmandlikdan ajralib, mustaqil faoliyat bajarishi hozirgi kunda yuzaga chiqqan keskin muammolarni echishga qodir emasligini anglay boshladi. Vaholanki, fan endigina shakllana boshlagan davrdayoq uyg'onish davri donishmandi Nikolay Kuzanskiy fanning falsafadan mustaqil faoliyat yuritishi to'g'ri emasligini alohida ta'kidlagan va falsafasiz bilimni "ilmiy johillik" (uchenoe neznanie) deb atagan edi. Keyinchalik I.Kant falsafasiz fanni "bir ko'zli minotavr" ga qiyoslagan edi.

Shunga qaramay falsafa bilan fan orasida ajralish sodir bo'ldi va buning oqibatida o'laroq hozirgi global tsivilizatsion krizis yuzaga chiqdi. SHuning uchun

⁹³Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.- Toshkent.: Ma'naviyat. 2008.- B.68-69.

endilikda ushbu krizisni bartaraf etishda avvalo ajralishga qadar bo'lgan asl falsafa qanday edi va unda eng muhim ijtimoiy qadriyat bo'lgan inson hayotining ma'nosi muammosi qanday echilgan edi, degan masalani yoritib olish zarurati ko'ndalang bo'ldi. Chunki, bizga yaqin kunlarga falsafani fan, fanlardan biri, deb keldik. Fan esa faqat faktlar va ob'ektiv bilimlar bilan ish ko'radigan ijtimoiy ong shaklidir. Inson, uning hayotining ma'nosi masalasi esa uning sub'ektiv, ichki dunyosiga tegishli bo'lgani uchun fan nazaridan soqit qilingan edi.

Vaholanki, prezidentimiz aniq ifodalab berganiday, "Hayot mohiyatini anglab etishga o'z umri, bilim va salohiyatini bag'ishlagan ne-ne buyuk zotlar, mutafakkir faylasuflar, alloma va aziz-avliyolar — millati, tili va dinidan qat'iy nazar — shu kabi murakkab muammolarga javob topish uchun izlangan, bu mavzuda qancha-qancha asarlar yaratgan. Lekin bu savol bugungi kunda ham hanuz o'tkir va dolzarb bo'lib qolayotganini inkor etib bo'lmaydi."⁹⁴

G'arbda ma'naviy krizis boshlangani O.Shpenglarning Evropa madaniyatining halokatga yuz tutishiga bag'ishlab yozgan maxsus asarida, Gusserlning Evropa fanlari va falsafasining krizisi haqidagi ishida, shuningdek, ekzistentsializm falsafasi vakillarining, masalan, Kafka, Kamyu, Sartr va boshqa mutafakkirlarning asarlarida, xususan, "absurd dunyo" haqidagi g'oyalarida yorqin ochib berilgan.

Faylasuflarning to'g'ri xulosalariga ko'ra tarixning krizis davrlarida inson borlig'ining abadiyatga oid masalalari, xususan, ruh, jon, ayniqsa hayotning ma'nosi masalasi hamisha birinchi o'ringa chiqib kelgan. Holbuki, hozirgi davr krizisining global xarakteri bu masalani mislsiz dolzarb va keskin muammoga aylantirdi. Sobiq Ittifoq parchalana boshlagan davrdan buyon bu krizis haqida, ayniqsa uning ruhiy xarakteri haqida Rossiyaning deyarli barcha taniqli faylasuflari va olimlari ko'pdan buyon jiddiy izlanishlar olib bormoqdalar. S.Xorujiyning "Rossiyskaya gazeta" muxbiriga bergan interv'yyusining "Inson o'z mohiyatini yo'qotib qo'ydi" deb nomlanishining o'ziyoq shuni ko'rsatadi. Undan tashqari V.N.Porus, Arshinov V.I., Burov V.A., Lepskiy V.E. Nazaretyan, A.A.Subbotin,

⁹⁴Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.- Toshkent.: Ma'naviyat. 2008.- B.23.

A.S. Subbotin, V.P. Kaznacheev, V.G.Budanov, E.Yu.Yastrebova va boshqalarning ishlarida ayni shu masalaning dolzarbligiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur ishlarda, bir so'z bilan aytganda, hozirgi davr kishisi hayotining ma'nosi to'g'ri yoritib bera olmagan uchun ratsionalistik va materialistik dunyoqarash krizisga uchragani haqidagi xulosalar oldinga surilgan. Bu xulosalar fan endigiga gullab-yashnay boshlagan davrda faqat Tolstoy kabi buyuk mutafakkirlarni azobga solgan "hayotning ma'nosi" muammosi endilikda deyarli butun insoniyat oldida jiddiy ko'ndalang bo'lganini ko'rsatadi.

Lekin, falsafaning aslida nima ekanini tushunish ham dinni tushunish kabi oson emas. Zero dunyoqarash shakli sifatida falsafa ham din kabi murakkab ma'naviy qadriyat bo'lib, u ham o'z mavjudligi tarixida uzoq va murakkab o'zgarishlar jarayonnini boshdan kechirdi. Bu jarayonda uning tadqiqot predmetidan tortib, strukturasi, vazifalari, metodlari, butun muvazunida juda ko'p va tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shuning uchun bu masalani o'rganishni ham uning kelib chiqishi tarixidan boshlash maqsadga muvofiq. Zero, taniqli rus faylasufi A.F.Losev to'g'ri aytganiday, "tarixsiz biz ko'rsichqonga o'xshab qolamiz"⁹⁵, ya'ni zulmatda yashashga o'rganib qolganimiz tufayli yorug'likka chiqish yo'lni ko'rishimiz qiyin. Tarix esa shu yo'lni ko'rish imkonini beradi.

Tarix fanining milliy o'zlikni anglashdagi o'rniga baho berar ekan Prezidentimiz shunday ta'kidlagan edi: "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur... Tarix fani, uning bugungi ahvoli, istiqboli haqida gapirar ekanmiz, men yana bir masalaga e'tibor qaratishni istardim. Agar biz tarixchilarni taroziga solsak, bugungi kun nuqtai nazaridan baholasak, talabga javob beradiganlari juda kamchilikni tashkil etadi. SHuning uchun tarixchi mutaxassislar tayyorlashni universitetlardan, ya'ni boshlang'ich nuqtasidan yaxshilash lozim, deb o'ylayman. Kerak bo'lsa, tarixga ixtisoslashgan maktablarni ochish lozim. Buning uchun esa avvalo mukammal

⁹⁵ А.Ф.Лосев. Философия. Мифология. Культура. - Москва. Политиздат. 1991.- Б. 9.

darsliklar yaratish, domlarning o'zini qaytadan o'qitish kerak. Muhimi, yoshlarning orasiga kirish, ularning ichidan qobiliyatli, fidoyilarini topish, ularning yuragini yondirish kerak".⁹⁶

Globalashuvning milliy o'zlikka bo'lgan tahdidlariga qarshi turishda milliy g'oya va mafkura muhim ahamiyatga ega. Musaqillik yillarida ta'lim jararayonining o'quv dasturiga "Milliy g'oya" o'quv kursining kiritilishi bu boradagi ulkan yutuq bo'ldi.

Milliy istiqlool g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish hozirgi kundagi eng dolzarb vazifadir. Prezidentimiz aytganidek, zamon "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat" bilan kurashni talab etmoqda.

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, fuqarolarning milliy o'zligini anglash va ma'naviy kamolotga erishishini ta'minlash mamlakat mustaqilligini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarni yanada unumliroq bo'lishiga olib keladi. Mehnat, o'qish, ish, amaliy faoliyat tufayligina pirovard natijaga-Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatda milliy g'oyaning elni birlashtirish, faollashtirishga safarbarlik kuchidan foydalanish juda muhim. Bunga doir yo'l-yo'riq, usul va uslublar ham uning serqirraligi va keng qamrovligi bilan belgilanadi. Milliy g'oya jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida o'z ta'sirini ko'rsatib, ko'p millatli O'zbekiston xalqining orzu intilishlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Milliy istiqlool g'oyasining safarbarlik kuchi ayniqsa globalashuv sharoitida mamlakatni "Yagona Vatan" deb tushunuvchi har bir millat vakillari, turli diniy e'tiqotdagi turli ijtimoiy tabaqaga tegishli kishilarning umumiy intilishlari, o'y-orzusida fikr va amaliyotida namoyon bo'ladi. "Milliy g'oya" o'quv kursining umumiy o'rta, o'rta-maxsus, oliy ta'lim bosqichlarida o'qitilishi aynan shu maqsadlardan kelib chiqadi.

⁹⁶ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. –T.: O'zbekiston, 1999. –B. 79.

Umuman olganda barcha ijtimoiy fanlarni globallashtirish sharoitidagi o'quv-tarbiyaviy vazifasini kuchaytirish uchun quyidagi masalalarga e'tiborni qaratish zarur:

- ijtimoiy fanlarni zamon talabiga mos tarzda takomillashtirib borish. Har bir fan doirasida globallashtirishning milliy o'zlikka ta'sirini tadqiq etish;

- fan doirasida globallashtirishga oid olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilayotgan masalaga milliy taraqqiyot modeli nuqtai nazaridan baho berish;

- globallashtirish sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish borasida bildirilgan nazariy va amaliy takliflarni targ'ib etish maqsadida ommaviy axborot vositalaridan unumli foydalanish (ko'rsatuvlar, roliklar, radio eshittirishlar, internet saytlaridan maxsus sahifalar ajratish);

- ijtimoiy fanlarning o'quv dasturlariga globallashtirish sharoitida milliy o'zlikni ta'minlashga doir mavzularni kiritish;

- mazkur masala yuzasidan o'quvchi va talabalarda qat'iy nuqtai-nazarni shakllantirish maqsadida taniqli professor olimlar va davlat arboblari bilan uchrashuvlar, konferentsiyalar tashkil etish va h.k.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va mas'uliyatini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur. Bu masala haqida chuqurroq o'ylab ko'radigan bo'lsak, shu tamoyillarga tayangan jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy shakl-shamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yo'llari, ustuvor xususiyatlari to'g'risidagi aniq tasavvur turli fikr, bahs-munozaralar orqaligina ayon bo'lishini e'tirof etishimiz va buni o'zimizga mezon qilib olishimiz zarur. Bunday keng ko'lamli va o'ta muhim masalalarni hal qilishda davlatimiz va jamiyatimiz ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, turli ijtimoiy markazlar, avvalambor, Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan har tomonlama asoslangan chuqur taklif va tavsiyalarni kutishga to'la haqlidir.

Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.⁹⁷

Demak, hozirgi global o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy fanlarni va ularni o'qitish jarayonini tubdan takomillashtirmasdan turib bunday tahdidlarga qarshi samarali kurash olib borib bo'lmaydi. Zero, "mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol".⁹⁸

2.2. Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning ba'zi usullari

Milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy istiqlol g'oyasidan samaraliroq va kuchliroq vosita yo'q. Shu masalada milliy istiqlol g'oyasining juda muhim funktsiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash kabi muhim funktsiyasi namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi ana shu funktsiyani bajarishi uchun esa yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi lozim.

Milliy istiqlol g'oyasining shakllantirilishi va uning o'quvchilar, talabalar, keng aholi tomonidan o'rganishga kirishilishi mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida alohida bosqichni tashkil qiladi. Aslida milliy istiqlol g'oyasining negizlari chuqur. U xalqimizning milliy madaniy merosidan, ezgu g'oyalardan oziqlanadi. Lekin, bu g'oyani yoshlar va aholi ongiga singdirish uchun muayyan

⁹⁷Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent .: Ma'naviyat. 2008.- B. 69.

⁹⁸Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent .: Ma'naviyat. 2008.- B. 62.

poydevor kerak edi. Ya'ni, avvalo milliy qadriyatlarni, milliy ma'naviyatni tiklash, milliy g'ururni uyg'otish, bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasi tomir otishi va gurkirab rivojlanishi uchun zamin tayyorlash lozim edi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan buyon o'tgan davr ichida ma'naviyat sohasida ulkan nazariy, ma'rifiy va amaliy ishlar bajarildi. Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tuzildi, yuzlab maqola va risolalar nashr etildi, tadqiqotlar o'tkazildi, ta'lim to'g'risida milliy dastur qabul qilindi. Bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasini keng targ'ib qilish uchun zamin yaratildi.

Milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda, bizningcha ba'zan birtomonlamalikka yo'l qo'yilmoqda. Bu g'oyani targ'ib qilishda ishtirok etayotgan murabbiy va o'qituvchilar, tadqiqotchilarning chiqishlarida, maqola va risolalarida ma'rifatchilik bilan cheklanish ko'zga tashlanmoqda. Holbuki, ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda bu yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi. Bu hol milliy g'oyaning xususiyatlari bilan bog'liq.

Milliy g'oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Aslini olganda globallashuv jarayoni bo'lmasa, milliy g'oyaga ham ehtiyoj bu darajada oshmas edi. Chunki, globallashuv bo'lmaganda har bir xalq va millatning ma'naviyati o'zicha mavjud bo'lar va imkoniyat darajasida rivoj topardi. Tashqi ta'sir va tahdidning yo'qligi esa milliy g'oyaga ehtiyojni ham dolzarblashtirmas edi.

Milliy istiqlol g'oyasining mohiyati shundaki, u odamlar ongida, xotirasida g'oyaligicha qolmay amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqlol g'oyasi bo'lishi mumkin. Shundagina u globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi nosog'lom mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi.

SHuning uchun yoshlarni globallashuvning ma'naviyatimizga, milliy o'zligimizga tasiridan himoyalash uchun ta'lim-tarbiya jarayonining metodik jihatlariga ham katta ahamiyat berishimiz zarur.

Bu borada avvalo umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan qator ijtimoiy fanlar o'quv dasturlariga, masalan "Milliy g'oya", "Ma'naviyat asoslari", "Shaxs va jamiyat" o'quv kurslariga milliy o'zlikni anglash va uni takomillashtirish, uning globallashuv sharoitidagi milliy-ma'naviy mustaqilligimizni mustahkamlash va asrab-avaylashdagi o'rniga doir mavzularni kiritish lozim. Mavzular doirasida o'quvchilarda to'liqroq bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish uchun yangi pedagogik metod va texnologiyalardan samarali foydangan holda darslarni olib borish kerak.

Amaliy tavsiya sifatida "Milliy g'oya" o'quv kursining "Global mafkuraviy tahdidlar va ulardan himoyalaniishning ma'naviy-g'oyaviy jihatlari" mavzusini o'tish jarayonida "SVOT tahlil", "Bumerang", "Muammoli vaziyat", "Debat", "Tushunchalar tahlili", "Keys stadi", "Aqliy hujum" texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Darsning olib borilish shakli kichik guruhlarda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Masalan, dars jarayonida o'qituvchi guruhni ikkitadan beshtagacha guruhga bo'lib yuqoridagi ta'lim texnologiyalaridan birini yoki bir nechtasidan foydalangan holda darsni olib boradi.

Agar dars jarayonida "Debat" usuli qo'llanilsa guruh ikkiga (opponent, proponent) yoki uchga (opponent, proponent va ekspertlar) ajratiladi.

Albatta bu texnologiyaga ko'ra guruhlarga muayyan bahs talab savollar o'rta tashlanadi. Masalan:

- Globallashuv ijobiy hodisami yoki salbiymi?
- Bu jarayonda milliy o'zlikni saqlab qolishnin eng samarali yo'li qanday?
- Globallashuvning g'oyaviy tahdidlari qarshisida milliy o'zlikni saqlab qolishda Milliy g'oyamizdan qaysi biri muhimroq? kabi savollar asosida debat olib boriladi va albatta debatning yakunida o'qituvchi har ikki tomonning fikrlarini

umumlashtirib umumiy konsensus holatini ta'minlashi zarur. Natija bir tomonning g'alabasi bilan yakunlanmasligi lozim. Faqat har ikki tomonning asosli dalillari rag'batlantiriladi.

Dars jarayonida "Muammoli vaziyat" texnologiyasidan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchi guruhni bir nechta guruhga (3 tadan 5 tagacha) ajratadi va mavzuga doir biror holatni ifodalaydigan muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Masalan, har bir guruhga biror muammoli vaziyat aks ettirilgan tarqatma materiallar tarqatiladi. Unda shunday holat keltirilgan bo'lishi mumkin:

"Tasavvur qiling Siz xalqaro sammitda qatnashayotgan davlat nomidan ish ko'ruvchi vakilsiz. Sammitni olib boruvchi rais hozirgi globallashtirish jarayonini ijobiy tomonlari haqida ma'ruza qilib, o'z ma'ruzasida insoniyat taraqqiyotining keyingi taqdiri global madaniyat, global mafkura, global siyosat, global iqtisodiyot, global ta'lim, global bozorni shakllantirishga bog'liqligini ta'kidlab, bir qator takliflarni o'rta qo'yadi. Hususan:

- xalqaro pul birligi "internatsional"ni joriy qilish va milliy valyutani bekor qilish;
- har qanday milliy mafkurani global mafkura bilan almashtirish;
- milliy armiyani tugatish va global armiyani shakllantirish;
- milliy qonunlar o'rniga global miqyosda amal qiladigan qonunlarni va uni ishlab chiqadigan G'loparlamentni shakllantirish;
- milliy boshqaruvni xalqaro saylovlar asosida tashkil etiladigan globalokratiya bilan almashtirish;
- global maktablar va universitetlarni joriy qilish;
- milliy chegaralarni olib tashlash, milliy bozorlar o'rniga glomarketlar joriy qilish, har qanday bojhona to'lovlarini olib tashlash;
- qonunbuzuvchilarni jazolash maqsadida global sudlarni tashkil etish va h.k.

Sizning vazifangiz yuqoridagi takliflarni o'ylab oqilona tarzda qaror qabul qilishingiz lozim. Unutmang, siz umumtaraqqiyot, halq va kelajak avlod oldida mas'ulsiz".

Biz misol tariqasida masalani yuqoridagi ko'rinishda havola etdik. Har bir o'qituvchi o'z salohiyatidan, ijodkorligidan kelib chiqib masalani boshqacharoq tarzda qo'yishi mumkin. Bu texnologiyaning afzalligi shundaki, agar o'quvchi yoki talabaga yuksak ishonch bildirib uni javobgar shaxs sifatida oqilona qaror qabul qilishga yo'naltirsak, an'anaviy dars usullaridek shunchaki fikr-mulohaza bildirishdan yuqori mas'uliyatga asoslangan, vaziyatni tahlil eta oladigan, qat'iy nuqtai nazarga ega shaxs tarbiyasi tomon boramiz.

Dars o'tish jarayonida mazkur masalani o'quvchilar ongiga etkazishda "Bumerang" texnologiyasi ham yuqori samara beradi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi hamda muloqot va fikr almashishni yo'lga qo'yish uchun quyidagi jadval tushirilgan tarqatma material tarqatiladi (5-ilova)

5-ilova

Guruh	Savol	Javob	Kamchiligi
1-guruh	Globallashuvning yuzaga kelishida qaysi omillar muhim rol o'ynaydi?		
2-guruh	Globallashuv jarayonining milliy ma'naviyat va milliy o'zlikka ta'sirini nimalarda ko'rish mumkin?		
3-guruh	Global tahdidlar sharoitida milliy o'zlikni anglash va saqlab qolish uchun nimalarni taklif qilasiz?		
4-guruh	Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni himoya qilish uchun siz nima qilishingiz mumkin?		

Guruh a'zolari o'zaro kelishilgan holda savolga javob yozganlaridan keyin jadvalni kamchiliklarni to'ldirish yoki qo'shimcha takliflar uchun ikkinchi guruhga uzatadi. Shu tariqa guruhlararo muloqot yo'lga qo'yiladi.

Yuqoridagi ta'lim texnologiyalari bilan birga dars jarayoni sifatini oshirish uchun tetakchi olim va davlat arboblari bilan turli uchrashuvlar, kechalar va anjumanlar ko'rinishidagi tarbiyaviy tadbirlarni ham tashkil etish maqsadga muvofiq.

Hulosa qilganda o'quvchi-talabalarda milliy ong, tarixiy xotira, millatparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish, ularni har tomonlama etuk, global tahdidlar sharoitida esankirab qolmaydigan, qat'iy milliy pozitsiyaga ega qilib tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning barcha imkoniyatlaridan, usul va vositalardan samarali foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Har bir halq, har bir millat o'z kelajagini, istiqbolini belgilar ekan avvalo o'z fuqarolarini milliy ruhda, vatanparvar, millatparvar etib tarbiyalashga harakat qilib kelgan. O'zi yashayotgan ijtimoiy makondan, o'z tarixidan g'ururlanish, iftixor tuyish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, doimo o'z manfaatlarini millat manfaatlari bilan mushtarak ko'rish har doim har bir davlatning o'z fuqarolari ega bo'lishi lozim bo'lgan ma'naviy fazilat va burch sifatida qaralgan. Milliy ta'lim-tarbiyani shu maqsadga yo'naltirish esa hozir ham, bundan keyin ham har bir davlatning ustuvor siyosiy yo'nalishi bo'lib qolishi muqarrar.

Darhaqiqat, milliy o'zlikni anglash millat ozodligi va farovonligining, insonni o'z-o'zini anglab etishining muhim asosidir. Insoniyat tarixiy tajribasi bu fikrni oddiy haqiqat ekanligini isbotladi. Zero, tarixda ijtimoiy larzalar, inqirozli holatlar, urushlar ko'p bo'lgan. Ana shunday tarix sinovlaridan omon qolishning birdan bir yo'li milliy yakdillik, milliy hamjihatlik ekanligini anglab etgan xalqlargina bugungi kungacha o'zining mavjudligini, erki va ozodligini saqlab keldilar. Buni anglay olmagan halqlar esa o'z ozodligini, erkini qo'ldan boy berib tarixiy mavhumlikka singib g'oyib bo'ldilar. Shubhasiz bunday ayanchli oqibatni o'z boshidan kechirgan halqlar tarixda ko'p bo'lgan.

Inson ijtimoiy-falsafiy ma'noda ijtimoiy mavjudod. Uning hayotda o'z maqsadlari va manfaatlari bo'lishi muqarrar. Insoniyat ana shu maqsad va manfaatlarini qondirishda muayyan birliklarga jipslashadilar va o'zlariga hos bo'lgan ijtimoiy makon barpo qiladilar. Uning bor imkoniyatlarini, maqsad-muddaolarini ro'yobga chiqarishning eng keng chegarasi milliy birlik hisoblanadi. Bu makon inson farovonligining eng asosiy zaruriy sharti hisoblanadi. Insoniyat dunyoda yagona turga mansub mavjudod ekanligini anglab etsa ham uning manfaatli faoliyati chegarasi tom ma'noda millat manfaatlari miqyosidan u yog'iga o'ta olgan emas.

Shuning uchun ham hozirda "umumiy uy", "umumiy makon", "umuminsoniy manfaat" deb nom olgan shiorli tushunchalar haligacha insoniyat dunyoqarashidan mustahkam o'rin olib, yagona tsivilizatsiyaviy muhit qaror

topganicha yo'q. Aksincha hozirgi globallashuv sharoitida bu o'zgarishlardan milliy va hatto shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yib, boshqa millatlarni o'z ta'sir doirasiga olish tendentsiyasi ustuvorlik qilmoqda. Tabiiyki bunday sharoitda shunday maqsadlar qurboniga aylanishni istamagan har qanday millat najotni milliy o'z-o'zini anglashdan, milliy tarixiy xotirani tiklash va uni asrashdan qidiradi. Zero Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir"⁹⁹ va "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"¹⁰⁰.

Bunday sharoitda tarixiy ong va xotirani tiklash, milliy o'zlikni angash, milliy ma'naviy merosni kelajak avlod uchun asrab-avaylash, bu imkoniyatlardan globallashuv tahdidlariga qarshi tura oladigan mustahkam milliy pozitsiyaga ega avlodni tarbiyalashda samarali foydalanish biz bajaradigan ishning markazida turishi lozim.

Tadqiqot ishidan kelib chiqib quyidagi taklif va mulohazalarni umumlashtirish mumkin:

–milliy o'zlikni anglash doimiy zaruriy jarayon. Globallashuv davrida milliy o'zlikni anglashga har qachongidan ham ehtiyoj ortib boradi;

–milliy o'zlik ijtimoiy taraqqiyot mahsuli. Shuningdek ijtimoiy taraqqiyot ham milliy o'zligini anglagan insonlar va halqlar bilan sodir bo'ladi;

–globallashuvning har qanday ijobiy va salbiy jihatlarini milliy o'zlikni anglash kontekstida tushunish va anglamoq lozim;

–milliy o'zlikni anglash jarayoni tarixiy ong, tarixiy xotira hamda milliy ma'naviy meros bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun tarixiy ong va xotira hamda milliy ma'naviyatni asrab-avaylash hamda takomillashtirish globallashuv sharoitida eng ustuvor vazifaga aylanadi;

–globallashuvning xalqlar o'rtasidagi "eng faol ma'naviy-madaniy muloqot"ni ta'minlashdagi imkoniyatlarini e'tirof etgan holda, uning ba'zi

⁹⁹Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998. -B.10.

¹⁰⁰Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008. –B. 4.

gegemonlikka intilayotgan davlatlar uchun “ayni muddao” ekanligini ham unutmaslik lozim;

–milliy o'zlikni anglash, bu – dunyoqarashning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan masala. Dunyoqarashni shakllantirishda ijtimoiy fanlar muhim vositadir. Shuning uchun global o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy ongni, hususan milliy ongni rivojlantirishda ijtimoiy fanlarni ham zamon talablariga mos tarzda takomillashtirib borish kerak;

– bugungi globallashuv davri shaxsni ma'naviy kamoloti yo'lida ta'lim-tarbiya oldiga katta mas'uliyat yuklamoqda. SHuning uchun bu jarayon juda katta tayorgarlikdan o'tgan, ma'naviy salohiyati yuqori bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlashni kechiktirib bo'lmaydigan masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Ta'lim-tarbiya global standartlarga javob berish bilan birga milliy mazmunini yo'qotmasligi joiz. Bu jarayonda “shaklan global, mazmunan milliy” tamoyili amal qilishi maqsadga muvofiq.

Mana shu xususiyatlarni hisobga olib globallashuv sharoitida milliy o'zlikni shaxs ma'naviy dunyoqarashida qaror toptirishga doir quyidagi tavsiyalar taklif etildi:

–milliy o'z – o'zini anglashga xizmat qiluvchi milliy ma'naviy, madaniy merosga ixlosmandlikni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining ushbu yo'nalishdagi targ'ibot va tashviqot ishlari samaradorligini yuksaltirish;

– tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, ko'hna tarixiy yodgorliklarga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar tashkil etish, targ'ibot ishlarini olib borish;

–viloyatlarda “Oltin meros” jamg'armasi yordamida “Meros va o'zlikni anglash” ruknida tarixiy yodgorliklarga sayohatlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent. O'zbekiston, 2011, 440 bet.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.- O'zbekiston. 2009, 36 bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent.: Ma'naviyat. 2008, 176 bet.
4. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild, - T.: O'zbekiston, 2001, 432 bet.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. -Toshkent.: O'zbekiston, 2000, 278 bet.
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston, 1999, 410 bet.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., O'zbekiston, 1997, 326 bet.
8. Kando T. Postmodernism // Intern. j. of world peace, St.Paul, 1996, №3, pp. 182-196
9. А.И.Фурсов. Россия выбирает между государством-нацией и государством-корпорацией. «Завтра», № 41, 10 октябр. 2007. С.3-8.
10. А.Ф.Лосев. Философия. Мифология. Культура. - Москва. Политиздат. 1991, 524 bet.
11. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: Ma'naviyat, 1998, 164 bet.
12. Abdullayev R. Tarixiy ong va O'zbekistonning zamonaviy tarix fani. //Tarix va o'zlikni anglash II: O'zbekiston va Germaniya XX asrda. – Toshkent, 2007, 57-59 bet.
13. Abdullajanova D. Tarixiy ong va tarixiy xotira. //Falsafa va huquq. – Toshkent, 2004. – № 2, 34-35 bet.

14. Bahodir Zokir. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur, №2, 2007, 12-23.
15. Беляев М.И. Концепция русского национального государства.- М.: Мифология. 2006, 226 bet.
16. Бжезинский З. Великая шахматная доска. М.: Арктогея, 1997, 278 bet.
17. Boyto'raev T. Ajdodlar merosi va komillik tarbiyasi.//Muloqot.— Toshkent, 2005. — № 2, 18-19.
18. G'aybullaev O. Yoshlar ongiga istiqloq g'oyasini singdirishning ijtimoiy mohiyati haqida.//O'zbekistonda ijtimoiy fanlar.— 2005. — № 12, 8-10.
19. Гулямова Д., Никитченко Г. Историческая память как объект изучения социологии. //Общественное мнение. Права человека.— Ташкент,— 2001. — № 4,36-37.
20. Дудник С.И. Парадигмы исторического мышления XX века: очерки по современной философии культуры. СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001, 200 bet.
21. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 459 bet.
22. Каменская Р.А. Историческое сознание: Автореф. дис. канд. филос. наук. — Волгоград: ВГПУ, 1999, 28 bet.
23. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat — globallashuvning g'oyaviy asosi. — T., TAFAKKUR, 2009, 476 bet.
24. Келле В.Ж. Интеллектуальная и духовная составляющие культуры.//Вопросы философии. — Москва, 2005. — № 10, 27-29.
25. Курарцева М.А., Коломеец Е.Н. Историография и историческое мышление.// Вестник Московского Университета. — Москва, 2004. — № 2, 21-22.
26. Qurbonov T.H.Yoshlarda milliy g'ururning shakllanishida madaniy merosning roli: fals.fan.nomz. diss...avtoref — T.:O'zMU, 2005, 31 bet.

27. Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. T., Akademiya. 2007, 156 bet.
28. Майданов А.С. Миф как источник знания.// Вопросы философии. – Москва, 2004. – № 9, 29-31.
29. Mamashokirov S., Tog'aeв Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007, 156 bet.
30. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000, 328 bet.
31. Оруджев З.М., Кузнецова Т.В. Культура и цивилизация. // Вестник Московского Университета. – Москва, 2005. – № 2, 31-33.
32. Otamurodov S. Globallashuv va millat. T., Yangi asr avlodi, 2008, 268 bet.
33. Ochilova B.M. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Ma'naviyat, 1998, 240 bet.
34. Перкинс Д. Исповедь экономического убийцы. М., Претекст, 2007, 172 bet.
35. Померанц Г. Страстная односторонность и бесстрастие духа – СПб.: Университетская книга, 1998, 182 bet.
36. Рахимова Д. Историческое сознание как важнейший фактор формирования идеологии независимости. // Общественные науки в Узбекистане.– Ташкент, 2004. – № 2, 4-5.
37. Rahmonov R., Fayziev F. Yoshlar dunyoqarashi shakllanishida tarixiy ong va tarixiy xotira. T., O'zbekiston, 2008, 123 bet.
38. Режабек Б.Я. Становление мифологического сознания и его когнитивности.//Вопросы философии. –Москва, 2002. – № 1, 21-23.
39. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. В 2х. т. – М.: Педагогика, 1989. Т. 1. 282 bet.
40. Руссо Ж.Ж. Трактаты. - М., 1969, 213 bet.

41. Saidov M. Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. //Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2006, 2-4.

42. Saidov U. Globllashuv va madaniyatlararo muloqot. T., Akademiya, 2008, 176 bet.

43. Samiboev X., Shirinboev SH. Mahalla– tarixiy xotirani tarbiyalash maskani. //Muloqot.– Toshkent, 2003. – № 3, 54-55.

44. Столевич Л.Н. Об общечеловеческих ценностях.// Вопросы философии. – Москва, 2004. – № 7, 31-33.

45. Tafakkur gulshani. Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so'zlari. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, 522 bet.

46. Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish– davr talabi. – T.: Mehnat, 2000, 168 bet.


47. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T.:Sharq, 2005, 389 bet.

48. Философский энциклопедический словарь / Губский Е. Ф., Кораблева Г. В., Лутченко В. А – М.: Инфра, 1999, 576 bet.


ILOVALAR

1-ilova

Globalashuv va milliy chegaralarning yo'qolib borishi




2-ilova



Milliy o'zlikni anglash

3-ilova



4-ilova

Milliy o'zlikni anglashni shakllantiruvchi vositalar

